

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI
O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI**



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
v.b. _____ f.f.n. Sh.Haydarov
“ _____ ” _____ 2013 yil

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun
SHERMATOVA DILRABO QAHRAMONOVNANING

“Otlarning ma’no jihatidan turlari va uni
maktabda o‘tish usullari”
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
Taqrizchi:

katta o‘qituvchi H.O‘roqov
prof. X.Jo‘rayev

BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI
kafedra yig‘ilishining (qaror №10, 15.05.2013)
qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri _____ p.f.n. Q.Yadgarov

Jizzax-2013

“OTLARNING MA’NO JIHATIDAN TURLARI VA UNI MAKTABDA O‘TISH USULLARI”

REJA:

Kirish. BMI ning umumiy tafsifi

I bob. Atoqli otlarni o‘tish usulari.

1.1. Atoqli otlarning turlari va ularni noan’anaviy usulda o‘tish.

1.2. Tarixiy sana va bayram nomlarini anglatuvchi otlarni noan’anaviy usulda o‘tish

II bob. Turdosh otlarni o‘tish usullari.

2.1. Turdosh otlar va uning ma’noviy guruhlari.

2.2. Turdosh otlarni noan’anaviy usulda o‘tish.

III bob. Bitiruv malakaviy ishining amaliyotga tadbiqu.

3.1. Bir soatlik noan’anaviy dars ishlanmasi

Xulosa.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek diyorida ham yangilanish ham rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot, umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo‘nalishlariga jadal suratlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo‘jaligining barcha sohalari shu jumladan ta‘lim sohasida ham ulkan islohatlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bu o‘zgarishlarning ahamiyati haqida shunday degan edilar: “Iqtisodiy muammolar ertami kechmi hal etiladi, uning ilmiy boyligini qadirlamagan, uning taraqqiyoti uchun qayg‘urmagan davlatning kelajagi bo‘lmaydi. Buni doim yodda tutmog‘imiz lozim”. Shu sababdan istiqloq samarasi o‘laroq tilshunoslikda yangi tadqiqotlar maydonga keldi.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berila boshlandi. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi ushbu jarayondagi eng muhim bosqich sifatida harakterlanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingach, Davlat ta‘lim standartlari doirasida zamonaviy mutahassis sifatida qo‘yilgan talablar kuchaytirilgan. Mustaqil bilimlarni to‘ldirish va yangilash ko‘nikmasi izlanish olib boorish, yangi yechimlar qabul qilish, ijodkor shaxs bo‘lish, mustaqil fikr yuritish –barkamol shaxs sifatleri tarkibini tashkil etadi.

Demak, o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, dars o‘tishning yangi usullarini ishlab chiqishning metodologik yo‘nalishlari va ahamiyati kuchaymoqda hamda ijodiy tafakkurni shakllantirishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. O‘qitish jarayonini texnologiyalashtirish yangi asrda ustivorlik kasb etmoqda.

“... Tilimiz, dilimiz, urf-odatlarimizni, ma‘naviy qadriyatlarimizni butkul yo‘qotib qo‘yish xafidan saqlab, asrab-avaylab, ularning azaliy mazmuni va qudratini tiklashga keng yo‘l ochib berildi”. Jumladan, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o‘zbek tilining ravnaqi uchun keng yo‘l ochilishi barobarida o‘zbek tilshinosiga va uni o‘qitish zimmasiga ulkan vazifalar yukladi.

Bugun ta'lim jarayonida ijodiy o'zgarishlarni yuzaga chiqarish uchun davlat ham, jamiyat ham to'la safarbar qilingan. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Jamiyat ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi.

Men bu masalani alohida ta'kidlab aytayotganim bejiz emas. Ona tili-bu millatning ruhidir, o'z tilini yo'qotgan har qandan millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar".

Ushbu jarayonlardan oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri-ularning barchasi avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutahassis kadrlarni tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligi haqida fikr yuritish va shu asosida otlarning ma'no jihatidan turlarini o'tish usulini ishlab chiqish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Demokratik jamiyatning o'qitish jarayonidagi o'ziga xos tomoni har insonni erkin fikrlaydigan etib tarbiyalashdan iboratdir. Bu borada o'quvchilar so'z boyligini oshirish shu asosida ularning nutqini ko'rkam, jozibali tasirchan qilish yo'llari otlarning ma'no jihatidan turlarini o'tish jarayonida faktik materiallar yordamida asoslandi. Xullas, lug'at fondining asosini tashkl qilgan otlarning ma'no jihatidan turlarini o'tish yo'llari ishlab chiqildi. O'quvchilar nutqida otlarning ma'no jihatidan turlariga hos bo'lgan so'zlarning ahamiyatini his qilish yo'llari bayon qilindi. Bular o'z o'rnida mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha e'lon qilingan ilmiy metodik ishlar. Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida mavzuga bevosita aloqador bo'lgan quyidagi ilmiy metodik adabiyotlar o'rganildi va tahlil qilindi.

1. Shoabdurahmonov Sh. Va boshqalar, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent, 1988, Oliy o'quv yurtlari uchun bu darslikdan ot turkumiga oid bo'lgan nazariy ma'lumotlar o'rganildi va ishni bajarishda bevosita foydalanildi.

2. Til va adabiyot jurnalining 2010-yil 8-sonidagi Isroiljon Po‘latov, Hikmatxon Ahmedovaning “Ona tili bo‘yicha didaktik o‘yinlar” hamda 2011-yil 1-sonida Xurshida Hoshimovaning “6-sinfda “Ot” mavzusini o‘rganish tajribasidan” nomli metodik maqolalari o‘rganildi va bevosita foydalanildi. Unga ko‘ra umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 6-sinf uchun “Ona tili” darsligida ko‘zda tutilgan. Ot so‘z turkumi haqida olingan bilimlarni umumlashtirish, o‘quvchilarni faollashtirish, erkin fikrlashga, nutqini o‘ztirishga o‘rgatishni darsning bosh maqsadi qilib belgilangan.

3. N.Mahmudov, A.Sobirov, D.Nabiyevalarning umumta‘lim maktablarining 6-sinflar uchun ona tili darsligidan foydalanilgan holda bitiruv malakaviy ishi yozildi. Unda otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari hamda atoqli otlarning turlari va imlosi bo‘yicha 1 soatlik dars mashg‘ulotlari berilgan.

Ishning maqsadi va vazifalari: “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 7-moddasida Davlat ta‘lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oiliy ta‘lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi”- deyilgan. O‘quvchining ma‘lumot saviyasiga qo‘yiladigan talab esa, ta‘lim jarayonini oldiga qo‘yiladigan ijtimoiy talab bilan belgilanadi. Shunday ekan, Davlat ta‘lim standarti, jumladan, ona tili davlat ta‘lim standarti ham ta‘lim jarayoni oldiga qo‘lyilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda belgilab berildi. Ona tili ta‘limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsiy fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya‘ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o‘rgatishdan iborat.

Ona tili ta‘limi oldida ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqat madaniyati rivojlangan sovdxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo‘yilgan. Bu talablarni bajarish o‘quvchini o‘z fikrini va o‘zgalar fikrini anglash vazifasini qo‘yadi. Otlarning ma‘no jihatidan turlarini o‘tish orqali o‘quvchilar nutqini bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi qilib belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi maqsaddan kelib chiqqan holdan belgilangan:

- Ona tili ta'limida, xususan, ona tili darsliklarida otlarning ma'no jihatidan turlarini yangi pedagogik texnologiyalarga tayanib, noan'anaviy usulda dars o'tish orqali o'quvchilarga chuqur bilim berish, bu bilimlarni amaliyotda qo'llashga imkon beradigan ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish yo'llarini belgilash;

- Otlarning ma'no jihatidan turlarini o'tish bo'yicha metodikada nazariy va amaliy fikrlarga munosabat bildirish;

- Otlarning ma'no jihatidan turlarini umum o'rta ta'lim maktablarida o'qitish holatini belgilash;

- Uzluksiz ta'lim tizimida otlarning ma'no jihatidan turlarini o'qitishning amaliy asoslarini aniqlash.

Ishning amaliy ahamiyati: Ushbu malakaviy bitiruv ishimiz metodik xarakterda bo'lganligi uchun dars jarayonida qo'llash uchun qator tavsiyalr ishlab chiqildi. Otlarning ma'no jihatidan turlarini o'tish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish uchun dars jarayonida foydalanish zarur bo'lgan fikr mulohazalar keltirilgan. Otlarning ma'no jihatidan turlarini o'tishda o'yin-topshiriqlardan foydalanish yo'llari, tarqatmali materiallardan foydalanish usullari va o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini o'sritish uchun qiyoslash usullardan foydalanib, otlarning ma'no jihatidan turlarini va ularning bir-biridan farqi hamda funksionol qo'llanilishi izohlangan.

Biz tavsiya qilayotgan metodlar, ta'limiy o'yinlar, ko'gazmali vositalar va tarqatmali materiallar birinchi marta tavsiya qilinayotganligi uchun ham ishimizning amaliy ahamiyati katta degan xulosaga kelamiz.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch asosiy bob va xulosa qismlaridan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi ish yuzasidan e'lon qilingan. Ilmiy metodik ishlar, ishning amaliy ahamiyati hamda bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari yoritilgan.

Ishning asosini otlarning ma'no jihatidan turlari va dars jarayonida qanday o'tish tartibi, usuli, yo'llari batafsil ko'rsatib berilgan. Ishga qisqa xulosa yakun yasaydi.

I BOB. ATOQLI OTLARNI O‘TISH USULLARI.

1.1. Atoqli otlarning turlari va ularni noan’anaviy usulda o‘tish.

Ma’lumki, nutqimizda ot turkumiga kiradigan so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Borliqdagi narsa va hodisalarni ifodalayotgan atoqli otlar ham maxsus tekshirish ob’ekti darajasidadir. Atoqli otlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi oshadi, fikrlash doirasi kengayadi. Chunki ayrim atoqli otlar o‘quvchi tasavvurida boshqacha ma’no anglatishi mumkin. Masalan, shunday joy nomlari borki, ular faqatgina harakterli: Tomdi, To‘rtko‘l, Sardoba, Chorsuv, Beshkapa, Oqbuloq kabilar bir qarashda oddiy so‘zlashuvdagi birliklarga o‘xshaydi. Vaholanki, ular joy nomlarini anglatib o‘sha yerda yashovchilar uchun bir makonning nomi ma’nosini ifodalaydi. Boshqa joyda yashovchilar esa atoqli otligini ulardan eshitibgina anglashadi. Bunday ma’lumotlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning atoqli ot haqidagi tushunchalari kengayadi. Demak, atoqli otlarni o‘quvchilarga alohida o‘rgatish zaruriyati tug‘uladi. Shundan kelib chiqib darslikdagi atoqli otlar uchun berilgan topshiriqlar bajartiriladi. **1- topshiriq** shartiga ko‘ra o‘quvchilar shaxs, joyni bildiruvchi atoqli otlarga misollar keltiradi.

O‘quvchi:

Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Zulfiya, Erkin Vohidov, Oybek, Abdulla Qahor – bular shaxs nomini bildiruvchi otlar sanaladi.

O‘quvchi:

O‘zbekiston, Jizzax, Yangiobod, O‘rta Osiyo, Zomin, Samaqand – bular joy nomlarini bildiruvchi otlar hisoblanadi.

O‘quvchilar **1- topshiriqni** bajarib bo‘lgandan so‘ng, **2- topshiriq** bajariladi. Topshiriq shartiga ko‘ra o‘quvchilar berilgan so‘zlarni jadvallarga joylashtiradi.

Jo‘ra, Bekobod, Usmon Nosir, Bo‘ribosar.

Shaxs nomlari	O‘rin-joy nomlari	Narsa nomlari
Jo‘ra Usmon Nosir	Bekobod	Bo‘ribosar

O‘quvchilar tomonidan topshiriq bajarilganidan keyin, ularning so‘z boyligini oshirish uchun qo‘shimcha topshiriq beriladi. Siz ham atoqli otlarni bildiruvchi shaxs, o‘rin-joy, narsa nomlariga mustaqil ravishda misollar toping. Topgan so‘zlaringizni jadvallarga joylashtirib, ularning izohini bering. O‘quvchilar o‘tirgan joylarida mustaqil ravishda bajarib bo‘lganidan keyin, darslikda berilgan **3-topshiriq** bajariladi. Unga ko‘ra berilgan so‘zlarni ism, ota ismi, familiya, taxallus bildirishiga ko‘ra guruhlanadi.

Toshev, Yo‘ldosh o‘g‘li, Xorazmiy, Ibn Sino, Sanobar Akbar qizi, Navoiy, Cho‘lpon.

Ism	Ota ismi	Familiya	Taxallus
Ibn Sino	Yo‘ldosh o‘g‘li Sanobar Akbar qizi	Toshev	Cho‘lpon Xorazmiy Navoiy

Atoqli ot mavzusiga doir topshiriqlar bajarib bo‘lingandan keyin, o‘quvchilarning egallagan bilim va malakalariga tayanib, darsda berilgan nazariy ma’lumot tushuniladi.

Biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo‘yilgan nomlar *atoqli otlar* sanaladi. Atoqli otlar nimani atab kelishiga ko‘ra shaxs nomlari va joy nomlariga bo‘linadi.

Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusini bildiruvchi otlar *shaxs nomlari* sanaladi.

Familyalar shaxs ismidan so‘ng otasining ismini qoldirish (*Usmon Nosir*), otasining ismiga –ov(a), -yev(a) qo‘shimchasini qo‘shish (*Erkin Vohidov*) bilan ifodalanadi.

Ko‘pchilik atoqli otlar turdosh ot yoki boshqa biron so‘z turkumi asosida vujudga keladi: Po‘lat, Go‘zal, Sakson ota, Kimsan, Sotiboldi, Ko‘paysin. Ba‘zan atoqli otlar turdosh otga aylanishi mumkin: amper (to‘k o‘lchovi), xosiyatxon (atlas turi), makintosh (kiyim turi).

O‘quvchilardan atoqli otlarning turlari va imlosi haqidagi ma’lumotlarni qay darajada tushunganligini so‘rash orqali aniqlanadi. Shundan so‘ng darsda berilgan mustahkamlash mashqlari bajartiriladi.

265-mashq. Shaxs nomlarini toping va ularni izohlang. Yana qanday mashhur allomalarni bilasiz? Shu haqda suxbatlashing. Bu topshiriqni bajarish uchun mashqda berilgan Erkin Vohidovning she‘rini ikki o‘quvchi navbati bilan o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar she‘r matnidagi shaxs nomlarini topib, ularni izohlaydi.

O‘quvchi:

Notiq dedi:

“Taqdir shul,

Bu jahoniy iroda.

Tillar yo‘qolur butkul,

Bir til qolur dunyoda”.

“Ey voiz, pastga tushgin,

Bu gap chiqdi qayerdan?”

Navoiy bilan Pushkin

Turib keldi qabrdan.

O‘quvchi:

Navoiy-buyuk mutaffakkir shoir, olim, musiqachi, rassom va davlat arbobi, o‘zbek adabiy tilining asoschisi. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda

Hirotning Bog'i Davlatxona atalmish joyda tug'ilgan. U juda ko'p asarlar, she'rlar yozgan. Xalq orasida mashhur bo'lgan asari "Xamsa" dostonidir.

O'quvchi:

Pushkin-to'liq ismi Aleksandr Sergeyevich Pushkin ulug' rus adibi, yangi rus adabiyotining asoschisi. U 1799-yil 6-iyunda Moskvada tug'ilgan. Otasi Sergey Lvovich fransuzcha she'rlar yozib turardi. Pushkinni buvisi va enagasi tarbiyaladi. Uning she'rlari 15 yoshidanoq matbuotlardan bosilib chiqqan. Uning ko'p she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilingan "Kavkaz asiri", "Yevgeniy Onigin", "Kapitan qizi".

266-mashq. Gaplarni ko'chiring. Atoqli otlarni shaxs nomlari va joy nomlariga ajrating.

1.Yana bir necha kun turib kelmoq uchun Otabek Marg'ilonga, Hasanali ota Yusufbek hojini tinchlantirish uchun Toshkentga jo'nadilar. (Abdulla Qodiriy) 2. Chol ko'zlarini qisib, kulib qo'yadi:-Yaxshi. Ma'nolik narsa. Muqimiyni ko'rganman. Xushfe'l, dono odam edi. Muqimiy-kattakon shoir. Qo'qonda turadi u kishi. (Oybek)

Bu mashqni bajarish uchun o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Guruhlarga "A'lochilar" va "Aqillilar" deb nom qo'yilib, birinchi guruh shaxs nomlarini, ikkinchi guruh joy nomlarini topib o'quvchilar navbati bilan doskaga chiqib yozadi.

"A'lochilar guruhi"

Shaxs nomlari :

Otabek

Hasanali ota

Yusufbek xoji

"Aqillilar guruhi"

Joy nomlari :

Marg'ilon

Toshkent

Qo'qon

Bu mashqni bajarishdan maqsad o'quvchilar atoqli otning turlaridan bo'lgan shaxs va joy nomlarini bir-biridan farqlay olish malakasini tekshirishdir.

O‘quvchilar bu mavzu bo‘yicha mustaqil ravishda o‘z ustida ishlashi uchun **268-mashq** uyga topshiriq sifatida beriladi. ***Ota-onangiz, akakularingiz, opa-singillaringizning*** ismlarini yozing va ularga izoh bering.

Namuna:

Fozil – **forscha** so‘z bo‘lib, yaxshi kishi, oqil, dono degan ma‘nolarni anglatadi.

Manzura – **arabcha** so‘z bo‘lib, “manzur bo‘lish” ya‘ni barchaga birdek bo‘lish, yoqish degan ma‘nolarni bildiradi.

O‘quvchilar atoqli otlar va ularning ismlari haqida darslikda berilgan topshiriqlardan bu mavzuning mohiyatini tushunib oldilar. Demak, ayrim shaxs yoki predmetga atab qo‘yilgan otlar atoqli otlar sanaladi va ularni quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi.

- a) Joy nomlari va ularning imlosi.
- b) Tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari.
- s) Tarixiy sana va bayram nomlari.
- d) Suv havzalari va inshoatlar nomlari.

Joy nomlari va ularning imlosini o‘tish

metodikasi

Har qanday pedagogik texnologiya ta‘limining yangi loyahasini rivojlantiruvchi tamoillarga asoslangan bo‘lib, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltiriladi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligi, o‘zaro muloqati, bir-biriga ko‘rsatadigan ta‘siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim.

Sinfda bunday muhitni tashkil etish uchun turli xil metod va usullardan foydalanishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar asosida atoqli otlar tarkibiga kiruvchi joy nomlari va ularning imlosi mavzusida bag‘ishlangan birinchi darslikda berilgan topshiriq bajariladi. Topshiriqni bajarishda “**so‘z top**” o‘yini (“Domino”)

orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi tomonidan bironta so'z aytiladi, o'quvchilar davom ettiradilar. O'qituvchi boshlagan so'z qaysi harfda tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlagan so'zni aytishi kerak. **Masalan:** *O'zbekiston – Namangan – Nukus – Samarqand – Dushanbe.*

Bu usul orqali o'quvchilarning diqqati jamlanadi, topqirligi, tezkorligi va so'z boyligining oshishiga yordam beradi.

Ma'lum bir geografik hududga atab qo'yilgan nomlar joy nomlari hisoblanadi. Mamlakat, o'lka nomlari qo'shma so'z shaklida bo'lganda tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi.

Tarkibida bo'yi, orti, oldi so'zlari ishtirok etgan joy nomlari qo'shib yoziladi.

O'quvchilar nazariy ma'lumotni olgandan keyin, uni qay darajada o'zlashtirganligini tekshirib ko'rish maqsadida ulardan so'rab ko'riladi. O'quvchilarning to'liq o'zlashtirilganligiga qoniqish hosil qilgach shu nazariy ma'lumotni mustahkamlash maqsadida darslikda berilgan mashqlar bajartiriladi.

269-mashq. Berilgan joy nomlarining tuzilishi va imlosini tushuntiring.

Surxondaryo, Buloqboshi, To'rtko'l, Qorovulbozor, Amerika Qo'shma Shtatlari, Janubiy Koreya, Marjonbuloq, Jarqo'rg'on, Markaziy Osiyo, O'zbekiston Respublikasi.

O'quvchi:

Surxondaryo, Buloqboshi, To'rtko'l, Qorovulbozor, Marjonbuloq, Jarqo'rg'on – bular tuzilishiga ko'ra qo'shma ot, ikkinchi qismi turdosh otdan iborat bo'lgani uchun qo'shib yoziladi.

O'quvchi:

Amerika Qo'shma Shtatlari, Janubiy Koreya, Markaziy Osiyo, O'zbekiston Respublikasi – bular ham qo'shma ot bo'lib, ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo'lgani uchun ajratilib katta harflar bilan yoziladi.

O‘quvchilar dars davomida atoqli otlarning turlaridan bo‘lgan joy nomlari haqida bir muncha bilimga ega bo‘ldilar. Ma’lum geografik hududga atab qo‘yilgan nomlar joy nomlari hisoblanadi. Geografik joylarga atab qo‘yilgan nomlar o‘zining ma’nosiga qarab farqlanadi. Ma’na shunday farqlay olish malakasini hosil qilish uchun o‘quvchilarga quyidagi **272-mashqni** bajartiriladi. Topshiriq shartiga ko‘ra berilgan joy nomlarini ma’no guruhlariga ajratib jadvalga joylashtirish.

Cho‘ponota, Amudaryo, Yevropa, Afrika, London, Qashqadaryo, Dashnobod, Koson, Osiyo, Ellikqal’a, Shirmonbuloq, G‘ijdivon, Tomdi, Samarqand, Beshkent Qamashi, Surxandaryo, Xorazm, Italiya, Uzunko‘cha, Uchtepa, Naymancha, Ispaniya, Gruziya, Chorsu, Jar tepa, Sariosiyo, Yaponiya, Xovos, G‘azalkent, Mang‘it, Xonqa, Shirmonpazlik, Temirchilik, Avstraliya, Yangichek, O‘rtasaroy.

Topshiriqni bajarishda o‘quvchilarning o‘tirgan partalar qatori bo‘yicha guruhlariga bo‘linadi. Darslikda berilgan jadvalga asosan joy nomlari 7 ta guruhga ajratilgan. O‘quvchilar o‘tirgan partalar qatori bo‘yicha 6 ta guruhga bo‘linadi. Jadvalda berilgan 6 ta joy nomlari guruhlariga bo‘lib, yettinchi joy nomini ya’ni mahalla nomlarini hamma guruhga qo‘shimcha topshiriq tarzida bajarish buyuriladi. O‘quvchilar ma’lum bir belgilangan vaqt asosida topshiriqlarni tez va aniq bajarganligiga qarab rag‘batlantiriladi.

Qit’a nomlari	Davlat nomlari	Shahar nomlari	Qishloq nomlari	Viloyat nomlari	Tuman nomlari	Mahalla nomlari
Yevropa	Italiya	London	Beshkent	Qashqadaryo	Amudaryo	Shirmonbuloq
Afrika	Ispaniya	Xovos	Naymancha	Samarqand	Dashnobod	Uzunko‘cha
Osiyo	Gruziya		Mang‘it	Surxondaryo	Koson	Uchtepa
Avstraliya	Yaponiya		O‘rtasaroy	Xorazim	Ellikqal’a	Chorsu
					G‘ijdivon	Jar tepa
					Tomdi	Shirmonpazlik
					Qamashi	Temirchilik

					Sariosiyo G'azalkent Xonqa	Yangichek
--	--	--	--	--	----------------------------------	-----------

O'quvchilarning geografiyada olgan bilimlari asosida bu topshiriq bajarildi. Bu topshiriqni bajarishdan maqsad o'quvchilar joy nomlarining ma'no guruhlarini bir-biridan ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish. Shu bilan birga guruhlarga bo'lib o'tish ancha samara beradi. Ya'ni, birinchidan, vaqt tejaladi, ikkinchidan, musobaqali bo'lganligi uchun o'quvchilar bir-biri bilan raqobatlashib dars samarasini ashiradi.

Mashqni bajarib bo'lgandan keyin, o'quvchilarning bugungi mavzu joy nomlari va ularning imlosi bo'yicha olgan bilimlarini tekshirish va mavzuni umumlashtirish maqsadida sinfga bir nechta savollar tashlanadi.

1. Joy nomlari deb nimaga aytiladi?

O'quvchi:

Ma'lum bir geografik hududga atab qo'yilgan nomlar *joy nomlari* hisoblanadi.

2. Joy nomlari qanday yoziladi?

O'quvchi:

Mamlakat, o'lka nomlari qo'shma so'z shaklida bo'lganda tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi

Tarkibida *bo'yi, orti, oldi* so'zlari ishtirok etgan joy nomlari qo'shib yoziladi

3. Tarkibida *oq* va *qora* so'zlari ishtirok etgan joy nomlariga misollar ayting.

O'quvchi:

Oqtepa, Oqqo'rg'on, Oqbuloq, Oqdaryo, Qorovulbozor, Qoraqamish.

Savollarga javob olingandan keyin, joy nomlari va ularning imlosi mavzusiga doir **274-mashq** uyg'a vasifa sifatida beriladi. Topshiriq shartiga ko'ra mustaqil ravishda o'quvchilar o'zi yashayotgan yerlardagi joy nomlarini yozib, ularning tarixiy shakllari ustida ham o'ylaydi.

Tashkilot, korxonalar, muassasa nomlarini anglatuvchi otlarni o'tish metodikasi.

Atoqli otlarning turlaridan bo'lgan joy nomlari va ularning imlosi bo'yicha berilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarda ko'nikma va malaka hosil bo'ldi. Atoqli otlar tarkibiga kiruvchi ikkinchi guruh tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari bo'yicha o'quvchilarga ma'lumot beriladi.

Tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari mavzusi bo'yicha berilgan **1-topshiriq** o'quvchilar tomonidan bajariladi. Unga ko'ra berilgan otlarni jadvaldagi guruhlariga ajratib, uning imlosini izohlash.

Sog'liqni saqlash vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Oliy Majlisi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent traktor zavodi.

Bu topshiriqni bajarish uchun **"Bilag'onlar musobaqasi"**ni o'tkazdiriladi. Buning uchun o'quvchilar 4 guruhga bo'linadi: **"Bilimdonlar"**, **"Zukkolar"**, **"Aqllilar"**, **"Topqirlar"**. 1-guruh xalqaro tashkilot nomlarini, 2-guruh davlat tashkiloti nomlarini, 3-guruh korxonalar nomlarini va 4-guruh davlat muassasi nomlarini belgilangan jadval asosida bajartiriladi.

Xalqaro tashkilot nomlari	Davlat tashkiloti nomlari	Korxonalar nomlari	Davlat muassasi nomlari
Birlashgan Millatlar Tashkiloti	Sog'liqni saqlash vazirligi O'zbekiston Respublikasi	Toshkent traktor zavodi	O'zbekiston Milliy universiteti

	Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Oliy Majlisi		
--	------------------------------------------------------	--	--

O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lgandan keyin, ularga qo‘shimcha topshiriq sifatida tashkilot nomlarining yozilish imlosini izohlash so‘raladi.

O‘quvchi:

Sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent traktor zavodi - Davlat tashkiloti nomi bo‘lganligi uchun birinchi so‘z bosh harf bilan yozilib, qolgan so‘zlar kichik harflar bilan yoziladi.

O‘quvchi:

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, O‘zbekiston Oliy Majlisi, O‘zbekiston Milliy universiteti – bular xalqaro va oliy davlat tashkilotlari nomlari bo‘lib, har bir so‘z atoqli otdan iborat bo‘lganligi uchun bosh harflar bilan yoziladi.

Tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari mavzusiga doir topshiriq bajarib bo‘lingandan keyin, o‘quvchilarning topshiriq bo‘yicha olingan bilim va malakalarga tayanib, nazariy ma’lumot tushuntiriladi.

Xalqaro tashkilot, oliy davlat tashkilotlari va mansablarining nomlari tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan yoziladi. Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi.

Turli korxonalar, mahsulotlar, inshootlar, transport vositalari kabilarga berilgan shartli nomlar qo‘shirnoq ichida bosh harf bilan (birikmali hollarda faqat birinchi so‘z) yoziladi: “Turkuston” (saroy), “Sharq gullari” (firma).

O‘quvchilarga darslikdagi tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari haqidagi nazariy ma’lumotni tushuntirilgach, ularning qay darajada o‘zlashtirilganligini tekshirib ko‘rish maqsadida ulardan so‘rab ko‘riladi. O‘quvchilarning to‘liq o‘zlashtirilganligiga qoniqish hosil qilgach, shu nazariy ma’lumotni mustahkamlash maqsadida **275-mashq** o‘quvchilar tomonidan bajartiriladi. Unga ko‘ra tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarini jadvalga joylashtirib, ular ishtirokida gaplar tuzish.

“Bahor” konsert zali, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi, Oliy xo‘jalik sudi, Buxoro viloyati hokimligi, “O‘qituvchi” nashriyoti, “Umid” firmasi, “Istiqbol” fermer xo‘jaligi. “Malika” ishlab chiqarish birlashmasi, “Nuroniylar” jamg‘armasi, Samarqand chinni zavodi, Quvasoy sement zavodi, “Turkiston” saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Guliston davlat universiteti.

Bu mashq ham guruh bo‘lib bajartiriladi. Buning uchun yuqorida bo‘lingan guruhlarga asosan bo‘linib, jadvalni to‘ldiradi va ularga og‘zaki ravishda gaplar tuzadi.

Xalqaro tashkilot nomlari	Davlat oliy tashkiloti va mansablari nomlari	Davlat muassasi nomlari	Korxonalar nomlari
Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi	Oliy xo‘jalik sudi Buxoro viloyati hokimligi	“Bahor” konsert zali “Nuroniylar” jamg‘armasi “Turkiston” saroyi Temuriylar tarixi davlat muzeyi Guliston davlat universiteti	“O‘qituvchi” nashriyoti “Umid” firmasi “Istiqbol” fermer xo‘jaligi “Malika” ishlab chiqarish birlashmasi Samarqand chinni zavodi

			Quvasoy sement zavodi
--	--	--	-----------------------

“Bilimdonlar” guruhi

Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

“Zukkolar” guruhi

A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani 2009 yil yangi tahrir ostida “O‘qituvchi” nashriyotida bosilib chiqqan.

“Tilchilar” guruhi

Bu yil men Guliston davlat universitetiga magistratura bo‘limiga o‘qish uchun hujjatlarimni topshirmoqchiman.

“Tilshunoslar” guruhi

O‘zbekiston bo‘yicha Samarqand chinni zavodi eng oldi chinni zavodlardan biri.

O‘quvchilarning to‘liq o‘zlashtirilganigiga qoniqish hosil qilingach atoqli otlarning turlaridan bo‘lgan tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari bo‘yicha uyga topshiriq sifatida **277-mashq** beriladi. Topshiriq shartiga ko‘ra o‘quvchilar o‘zlari yashayotgan joyidagi muassasa, korxonalar, tashkilotlarning nomlarini yozib kelish topshiriladi.

Tarixiy sana va bayram nomlarini anglatuvchi

otlarni o‘tish metodikasi.

Mustaqillik – o‘zbek madaniyati tarixida yangi davrni boshlab beradi. Istiqloq tufayli sho‘rolar davrida taqiqlangan milliy ma’naviyatimiz qayta tiklanadi. *“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdotlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va ma’daniy merosni tiklash davlat siyosati muhim vazifa bo‘lib qoldi”* – deb ta’kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov. Respublikada milliy qadriyatlarni tiklash borasida keng ko‘lamda jiddiy tadbirlarning amalga oshirilishi – jamiyatimiz ma’naviyati “binosi”ning qad rostlashiga muhim omil bo‘lmoqda.

Azal-azaldan udum, an'ana bo'lib kelayotgan tarixiy bayramlarimiz bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Tarixiy sana va bayramlarlar o'tgan davr ichida va bugungi kunda ham nima uchun nishonlanishi, milliyligimiz ramzi bo'lgan bu bayramlar inson uchun bunchalar zavq bag'ishlashi haqida o'quvchilarda tushuncha hosil qilish va orfografik jihatidan bu nomlar qanday yozilishi kabi muommolar bosh maqsad qilib qo'yiladi. Biz bilamizki tarixiy sana va bayramlarni ikki guruhga bo'linadi. Ya'ni bulardan biri 1 yil davomida kalendarga qizil ranglar bilan kiritilgan bayramlar hisoblansa, ikkinchi guruhga kalendarga kiritilmagan, lekin har bir soha vakillari uchun xos bo'lgan tarixiy sana va bayramlarni ko'rishimiz mumkin. **Masalan;** adabiyotchilar uchun xos bo'lgan bayramlar bu shoir va adiblarning tug'ilgan kunlarini katta shodiyona bilan o'tqazishi, tarixchilarga tarixiy sanalar, shifokorlar maxsus kunning va boshqalarning belgilanishi.

O'quvchilarga bunday bayram va sanalar haqida ma'lumot berish maqsadida darslikda berilgan topshiriq bajariladi. Topshiriq shartiga ko'ra o'quvchilardan tarixiy sana va bayramlarni bilishi va imlosini tushuntirish so'raladi.

Topshiriqni bajarish uchun sinf ikki guruhga bo'linadi. Guruhlar o'zlariga **“Zukkolar”** va **“Bilag'onlar”** deb nom tanlab, tarixiy sana va bayramlar nomlarini navbati bilan aytadi va imlosini tushuntiradi. To'g'ri va to'xtab qolmasdan ko'p aytgan guruh g'olib sanalib, o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

“Zukkolar” guruhi

1-yanvar – Yangi yil bayrami

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami

1-sentabr – Mustaqillik bayrami

8-dekabr – Konstitutsiya kuni

Qurbon hayiti

14-yanvar – Vatan himoyachilar kuni

1-iyun – Bolalar bayrami.

“Bilog‘onlar” guruhi

21-mart – Navro‘z bayrami

9-may - Xotira va qadrlash kuni

1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni

Ro‘za hayiti

9-fevral – g‘azal mulking sultoni Alisher Navoiy bobomizning tug‘ilgan kuni

14-fevral – buyuk shox va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning tug‘ilgan kuni

Shifokorlar bayrami

21-oktabr – Til bayrami.

Topshiriqni bajarishdan maqsad o‘quvchilar o‘zlari yashayotgan joylaridagi qanday milliy va tarixiy bayramlarni qay darajada bilishlarini tekshirib ko‘rishdir. O‘quvchilar tarixiy sana va bayram nomlarini bilib olgandan keyin, ularga nazariy ma’lumot tushuntiriladi. Nazariy ma’lumotda asosiy e’tibor bu nomlarning imlosiga qaratilgan. Bu ham ko‘rsatadiki grammatikaning hamma bo‘limlarida orfografiyaga doim diqqat qaratiladi.

1.2. Tarixiy sana va bayram nomlarini anglatuvchi otlarni noan'anaviy usulda o'tish

Nazariy ma'lumot berilib bo'lingandan keyin, tarixiy sana va bayramlar haqida o'quvchilar yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'lishlari uchun darslikda berilgan **278-mashq** bajartiriladi. Unga ko'ra berilgan gaplarni ko'chirib, tarixiy sana va bayram nomlarini topib, ularga izoh bering.

1. Ramazon kirdi... Dadam meni bozorshabga olib bordi. (Abdulla Qahhor) 2. *Aytganingiz kelsin, - dedi onamning chehrasi ochilib, - hamal-amal, o'lmagan qul bahorni ham ko'radi. Navro'z keladi... Navro'z so'zini eshitib, yuragim to'lqinlanib ketdi. (N.Safarov)* 3. *Yangi yilda uyimizga, baxsh etib zavq-u safo. Kirib keldi hassasini do'qillatib Qorbobo. (H.Imonberdiyev)*

Topshiriqni bajarishda uchta o'quvchi doskada bajaradi. Qolgan o'quvchilar o'tirgan joylarida mustaqil bajaradi. Doskadagi o'quvchilar berilgan gaplarni yozib bo'lgandan keyin, unda berilgan tarixiy sana va bayram nomlarini topib, ularga izoh beradi.

O'quvchi:

1. Ramazon kirdi... Dadam meni bozorshabga olib bordi.

Ramazon - bir yilda bir keladigan, lekin, har xil vaqtga to'g'ri keladigan bayram. Ramazon oyida musulmon insonlar, har xil yoshdagi sog'lom insonlar ro'za tutadi. Ramazon oyida mahalla bolalari kechki payt har bir xonadonlarga kirib "ramazon" qo'shig'ini aytib xonadonlarga zavq bag'ishlaydi.

O'quvchi:

2. Aytganingiz kelsin, - dedi onamning chehrasi ochilib, - hamal-amal, o'lmagan qul bahorni ham ko'radi. Navro'z so'zini eshitib, yuragim to'lqinlanib ketdi.

Navro‘z - xalqimizning eng qadimiy va e‘zozli bayrami. U shu ko‘hna zaminda bir necha ming yillardan beri keng nishonlanib keladi. U yilning Yangi kuni boshlanishini bildirib, Quyoshning Hamal burjiga kirish kunini anglatgan 21-martda kun va tun uzunligi tengma-teng bo‘ladi.

O‘quvchi:

3. Yangi yilda uyimizga, baxsh etib zavq-u safo. Kirib keldi hassasini do‘qillatib Qorbobo.

Yangi yil - O‘rta Osiyo xalqlari, ko‘pgina sharq mamlakatlaridagidek, hozirgi kunda ikki yangi yilni, ya‘ni bobolar odati bo‘yicha an‘anaviy “yil boshi” – “Navro‘z”ni va Yevropaning hamma mamlakatlarida rasmiy qabul 1-yanvarni yangi yilning kirib kelishi deb bayram qiladilar. Yangi yil kuni odamlar archalarni turli rangdagi o‘yinchoqlar bilan bezab, dasturxonga turli tuman yeguliklar qo‘yib, tongacha mehmon kutadilar. Qorbobo va qorqiz kelib bolalarga o‘yinchoqlar ulashadilar.

Bu topshiriqni o‘quvchilarga bajartirish nafaqat tarixiy sana va bayram nomlarini bilishi, balki shu sanalar haqidagi ma‘lumotlarga ega yoki ega emasligini bilib olish mumkin. Berilgan bu bayramlardan tashqari ya‘na boshqa tarixiy sana va bayramlar haqida bilib olishlari uchun **279-mashq** bajartiriladi. Unga ro‘ra berilgan bayram nomlarining mohiyatini so‘rash.

O‘zbekiston respublikasi hududida quyidagi kunlar bayram (dam olish) kunlari deb belgilangan.

1-yanvar – Yangi yil; 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni; 21-mart – Navro‘z bayrami; 9-may – Xotira va qadrlash kuni; 1-oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni; Ro‘za hayiti; Qurbon hayiti (kunlari o‘zgarib turadi).

Mashqda berilgan O‘zbekiston Respublikasi hududida bir yil mobaynida bo‘ladigan, kalendarda qizil rang ostida dam olish kuni deb belgilangan 9 ta bayram nomi berilgan. O‘quvchilar mana shunday bayramlar

haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun oldindan tayyorlangan bu bayramlarni tasvirlovchi rasmlar ko'rsatiladi. Rasmlarga qarab o'quvchilar bilan suhbat olib boriladi.



14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni

Mustaqil O'zbekistonda ushbu bayram o'z qurollantirish kuchlarni tashkil etishga bag'ishlangan. 1992- yil 14 yanvarda mamlakat parlamenti mamlakat hududidagi xarbiy o'quv yurtlar va boshqa xarbiy shakllarining barcha qismlari va birlashmalarini O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiya qaramog'iga o'tishi to'g'risida qarori qabul qilindi. Shunday qilib xususiy qurollantirish kuchlari

tashkil etildi.1993- yilda 29 dekabrda 14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni deb e'lon qilindi.



1-sentyabr - mustaqillik kuni

O‘zbekiston Respublikasining asosiy milliy bayrami - Mustaqillik kunidir. Ushbu bayram 1 sentyabr kuni marosimli va rang barang shaklda nishonlanadi. Milliy bayram do‘stlik, xayriya va har tomonlama xurmatga tayangan o‘zbek xalqining barcha orzularini nomoyon etadigan bayramdir.

O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millatlar vakillari millatiga, diniga va kelib chiqqan irqiga qaramasdan O‘zbekistonning barcha hududlarida faol nishonlaydilar.



O‘rta Osiyo xalqlari, ko‘pgina sharq mamlakatlaridek, hozirgi kunda ikki yangi yilni, ya’ni bobolar odati bo‘yicha an’anaviy “yil boshi”- “Navro‘z” ni va Evropaning xamma mamlakatlarida rasmiy qabul 1-yanvarni yangi yilning kirib kelishi deb bayram qiladilar. Yangi yil kuni odamlar archalarni turli rangdagi o‘yinchoqlar bilan bezab, dasturxonga turli tuman eguliklar qo‘yib tonggacha mehmon kutishadi.



8 dekabr - Konstitutsiya kuni

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Parlament tomonidan 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. Ushbu bayram butun O'zbekiston bo'ylab keng nishonlanadi.



1 oktyabr - Ustoz va murabbiylar kuni

Har yili O‘zbekistonda Ustoz va murabbiylar kuni keng nishonlamoqda. Qadim zamonlardan ustozga bo‘lgan chuqur xurmat va e‘tiroz saqlanib qolgan. "Domla", "Muallim", "Ustoz" kabi so‘zlar o‘z ustozlardan nafaqat bilimlarni va axoliga bo‘lgan xurmat munosabati va Vatanga bo‘lgan mehriga ega bo‘lgan o‘quvchilar asrlar davomida minnatdorchilik va izzat bilan murojyat etganlar.

Maktab va o‘quv muassasalarning o‘quvchilari xayotning ilk bilimlarini bergan ustozlarga chuqur izzatdadir. Ushbu kunda o‘quvchilar minnatdorchilik bilan gullar va sovg‘alar bilan xayot yo‘lida mashaqatli mehnat uchun chin yurakdan tabriklaydilar.



21- Mart - Navro‘z

Navro‘z qadimiy milliy bayrami (forz tilidan tarjima qilindanda "yangi kun" ma'nosini anglatadi) 21 mart kuni nishonlanadi va yangi yilning boshlanishi hisoblanadi. Ushbu kun kecha bilan kunduzning tenglashgan paytidir. Kecha va kunduzning bir hilligidir- 12 soat. Ushbu bayramning kirib kelishi bilan ko‘pgina O‘zbek oilalar Sumalak, Ko‘k somsa, Osh kabi turli milliy taomlarni tayyorlaydilar. Mazkur taomlar odamzod organizmiga foydali bo‘lgan ko‘p vitaminlarga boydir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlari va an‘analari kuchga kirdi, jumladan Navro‘z bayramini nishonlash o‘ziga xos tusga ega bo‘ldi. Bu bayram barcha xalqlarning do‘stlik va birlik ramziga ega bo‘lgan umumxalq bayramidir. Xozirgi kunda Navro‘z bayrami Alisher Navoiy maydonida keng nishonlanmoqda.



Ramazon Xayiti (Iyd-al-Fitr)

Ushbu bayram Ro'za xayiti sifatida tanilgan va musulmon (Xijriy) kalendarining 9-oyiga to'g'ri keladi. Bayram 30 kundan iborat bo'lib, ruxiy hamda ma'naviy tozalanish an'anasi hisoblanadi. Uning shartlari quyudagicha: kun chiqishdan to kun botganga qadar ovqat va suv iste'mol qilmaslik; yomon o'ylardan saqlanish; atrofdagilarga xurmatda bo'lish va ularga imkoniyat darajasida yaxshilik qilishdan iboratdir.

Ushbu shartlarni bajargandan so'ng uch kundan iborat bo'lgan Ramazon Xayiti boshlanadi. "Ramazon Xayiti" birinchi kuni dam olish kuni hisoblanadi.



Qurbon Xayiti (Iyd-al-Adxa)

Musulmonlar tomonidan nishonlanadigan dunyodagi eng katta diniy bayramlardan biridir. Bu bayramning negizi, o'g'lini Oллоh yo'lida qurbon qilishga tayyor bo'lgan Payg'ambar Ibrohim bilan bog'liq bo'lgan tarixiy voqeaga taqaladi, shunda uning harakati Oллоh tomonidan to'xtatilib o'rniga hayvon (qo'y, tuya va boshqa jonliq) qurbon qilish buyuriladi. Bayram uch kun davom etadi va musulmonlar bu kunlarni oila va qarindoshlar davrasida o'tkazadilar. Bayram kunlari kishilar uzoq-yaqinda yashovchi yaqinlarini holidan habar oladilar, muhtojlarga yordam beradilar. "Qurbon Xayiti"ning birinchi kuni dam olish kuni hisoblanadi.



8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni

O'zbekistonda ushbu bayram sevgi, mehrbonlik va go'zallik bayrami sifatida nishonadi, shuningdek, "onalar kuni" sifatida ham taniqlidir.

6-sinf o'quvchilarida ko'rgazmalilikning ahamiyati katta. Chunki ularning yosh hususiyatlari shuni taqozo qiladi. Ko'rgazmali vosita asosida tushuntirish ham ko'rish orqali xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ko'rgazmali vosita jadval, sxema yoki biror rasm tasviri asosida bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi topshiriqlarni bajarib bo‘lgandan keyin, mavzuni qanchalik tushunganligini tekshirib ko‘rish maqsadida **281-mashq** uyga vazifa sifatida beriladi. Unga ko‘ra darslikda berilgan rasm asosida “**Assalom, Navro‘z!**” mavzusida matn tuzish. Navro‘zni sharq xalqlari qanday kutib olishlari haqida so‘zlab berishdir.




Suv havzalari va inshootlari nomlarini anglatuvchi otlarni o‘tish metodikasi.

Ta’lim mazmunining isloh qilishi natijasida atoqli otlarning turlarini o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra bir necha guruhlariga ajratib o‘rganiladi. Bu ham ko‘rsatiladiki “Har bir tilning ichki rivojlanishini ko‘rsatuvchi qonun qoidalari bor” (Shaxmitov) ligini isbotlovchi vositadir. Dar haqiqat, atoqli otlarning bunday guruhlari o‘ziga xos farqqa egaligi uchun ham ajratiladi. Chunonchi, suv havzalari va inshootlari bizning yurtimizda suv muommosi bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa hozirgi sharoitda suv muommosining jahon miqyosida dolzarb qilib qo‘yilishi ularning alohida o‘rganishni taqazo qiladi.


Suv havzalari va inshootlari nomlari mavzusiga bag‘ishlangan topshiriq shartiga ko‘ra o‘quvchilar geografiya fanidan olgan bilimlariga hamda mahalliy sharoitga asoslanib, suv havzalari (okean, dengiz, ko‘l, daryo, soy, ariq, buloq) va suv inshootlari (kanal, suv omborlari, quduq) nomlarini topib, ularni daftoriga yozib, imlosini tushuntirish buyurilgan. Topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilarni 2 guruhga bo‘lib, **1-guruh** suv havzalari, **2-guruh** suv inshootlari nomlarini “**Klaster**” metodi orqali bajaradi. Ya’ni, 1-guruh suv havzalarini tarmoqlarga ajratib ularga misollar keltiradi. Shu bilan birga suv havzalari va inshootlari nomlarining orfografiyasi, punktasiyasiga e’tibor qaratilishini va imlosini tushuntirilishi guruhlariga yuklanadi.

I-guruh



Suv havzalari nomlaridagi birinchi so'z bosh harf bilan yozilib, ikkinchi qismi turdosh otdan iborat bo'lgan atoqli otlar qo'shib yoziladi

II-guruh



Katta Farg'ona – birinchi va ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo'lgan qo'shma ot ajratilib, bosh harif bilan yoziladi.

Qolgan suv inshootlari birinchi soʻzi bosh harf bilan yozilib, keyingi soʻzlar kichik hariflar bilan ajratilib yoziladi.

Klaster metodi aniq narsaga yoʻnaltirilgan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bogʻliq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning oʻquvchi tomonidan chuqur hamda puxta oʻzlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatini taʼminlashga xizmat qiladi.

Guruhlar topshiriqni bajarib boʻlgach ularning javoblari baholanadi. Bu oʻrinda koʻproq eʼtibor mahalliy suv havzalari va inshootlariga qaratiladi. Shundan soʻng suv havzalari va inshootlari nomlariga berilgan nazariy maʼlumot tushuntiriladi. Nazariy maʼlumotda asosiy eʼtibor bu nomlarning imlosiga qaratilgan. Bu ham koʻrsatadiki grammatikaning hamma boʻlimlarida orfagrafiyaga doim diqqat qaratiladi.

Suv havzalari va inshootlari nomlari tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan yoziladi.

Nazariy maʼlumotni qay darajada oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilganligi tekshirib koʻrilgach uni mustahkamlash uchun **282-mashq** bajartiriladi. Mashq shartiga koʻra berilgan matnni oʻqib, undagi suv bilan bogʻliq nomlarni topib izohlash.

Sirdaryo yoqasidagi togʻoldi tekisliklarida bunyod boʻlgan Toshkent shahri juda qulay tabiiy muhitga egadir. Shaharning obodonchilik sharoiti ham yaxshi. Toshkent vohasining Chirchiq daryosi suv bilan taʼminlab turadi. Shahardan oqib oʻtuvchi ariq va kanallarning hammasi Chirchiq daryosidan boshlanadi. Qorasuv, Salor, Kaykovus, Qoraqamish, Shayxontohur, Rohat, Oqqoʻrgʻon, Anhor shaharning qon tomirlaridir. (M. Roʻziyeva)

Topshiriqning berilishiga koʻra oʻquvchilar berilgan matnni navbati bilan oʻqiydi va undagi suv bilan bogʻliq nomlarni topib izohlaydi.

Namuna: Sirdaryo yoqasidagi togʻoldi tekisliklarida bunyod boʻlgan Toshkent shahri juda qulay tabiiy muhitga egadir.

Sirdaryo – Tyanshan tog‘larida 6000m balandlikdan boshlanib, Orolga borib quyiladigan daryo.

Topshiriqni o‘quvchilar shu tariqa bajaradilar. O‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirib, so‘z boyligini oshirish bilan birga orfografik va punktasion savothonligini oshirish ham bu mavzuning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuni ko‘zlagan holda o‘quvchilarning savodxonligini tekshirib ko‘rish maqsadida **283-mashq** bajartiriladi. Unga ko‘ra berilgan gaplarni daftarlariga ko‘chirib, suv bilan bog‘liq nomlarini topib, uning tagiga chizishdir.

1. Kampirning o‘tovi Zolariqning chap qirg‘og‘ida edi. (G‘afur G‘ulom) 2. Qorasuv kunchiqar va kunbotar tomonlari qo‘shni qishloqlar bilan, kun yurish tarafi qishloq ahli Qayir deb atovchi Qoradaryo o‘zani bilan tutashib ketgan katta ariq edi. (Qamchibek Kenja) 3. Qoplonbopning qoq o‘rtasidan Nuqrasoy shitob bilan oqib o‘tadi. (Said Ahmad) 4. Bo‘ron tezda o‘tib ketadi, biz Jayhunning narigi tarafiga o‘tganimizdan keyin bunaqangi yomon ofatlar bo‘lmaydi. (Mirmuhsin)

Mashqni bajarishdan oldin o‘quvchilardan kitoblarini yopish buyuriladi. Mashqdagi matn orqali o‘quvchilardan “**saylanma**” diktant olinadi. Ya’ni, berilgan matnni o‘qituvchi tomonidan aytib turiladi. Bu usul o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, savodxonligini oshiradi. O‘quvchilar orfografik bilimlariga tayanib diktant yozadi. O‘quvchilar yozib bo‘lgandan so‘ng, yozganlarini kitobdagi matnga solishtirib, xatolarini bundan keyin takrorlamasliklarini ta’kidlaydi. Topshiriq shartiga ko‘ra berilgan gaplardagi suv nomlarini topib tagiga chizadilar.

Suv havzalari va inshootlari nomlari o‘zining tuzilishiga ko‘ra bir necha tarmoqlarga bo‘linadi. Mana shunday bo‘linishlarini bir-biridan farqlay olish ko‘nikmasini hosil qilish uchun darslikda berilgan **284-mashq** bajartiriladi. Unga ko‘ra berilgan so‘zlarni jadvalga joylashtirib, ular ishtirokida gaplar tuzishdir.

Orol, Sangzor, Oqdaryo, Balxash, Issiqko‘l, Chortoqsoy, Zarafshon, So‘x, G‘ovasoy, Katta Farg‘ona kanali, Chordara, Chorvoq, Amu-Buxoro kanali, Qora dengiz, Tuyabo‘g‘iz, Shahrixonsoy.

Mashqni bajarish uchun to‘rtta o‘quvchi doskaga chiqib berilgan nomlarni jadvalga joylashtiradi va ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzadi.

Dengiz va ko‘l nomlari	Daryo nomlari	Soy nomlari	Kanal nomlari
Orol	Oqdaryo	Chortoqsoy	Katta Farg‘ona
Balxash	Zarafshon	G‘ovasoy	kanali
Issiqko‘l	Sangzor	Shahrixonsoy	Amu Buxoro
Qora dengiz	So‘x	Nuqrasoy	kanali
	Chirchiq daryosi		Chordara
			Tuyabo‘g‘iz
			Chorvoq

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi dengiz Orol deb nomlanadi.

Shahardan oqib o‘tuvchi ariq va kanallarning hammasi Chirchiq daryosidan boshlanadi.

Qoplonbopning qoq o‘rtasidan Nuqrasoy shitob bilan oqib o‘tadi.

Katta Farg‘ona kanali Farg‘ona viloyatidan oqib o‘tadi.

O‘quvchilar suv havzalari va inshootlari nomlarini mustaqil ravishda bir-biridan farqlay olish malakasi hosil bo‘ldi. Suv havzalari va inshootlari nomlari bo‘yicha tarix va geografiya fanidan olgan bilimlarini yanada tekshirib, mustahkamlab ko‘rish maqsadida ularga boshqotirma yechiltiriladi.

286-mashq. Boshqotirmaga yashiringan daryo nomlarini topib joylashtiring va ular haqida suhbat uyushtiring.

			1	O	q	daryo
		2	S	i	r	
	3	O	o	r	a	
4	O	a	sh	q	a	
5	S	u	r	x	o	

1. Birinchi qismi rangni bildiruvchi daryo nomi.
2. Orolga borib quyiluvchi daryo nomi.
3. Sirdaryoning chap irmog'i.
4. Qashqadaryo viloyati hududidan oqib o'tuvchi daryo nomi.
5. Ham daryo, ham viloyat nomini bildiruvchi so'z.

O'quvchilar mashqda berilgan jadvalni daftariga chizadilar va birgalikda boshqotirma yechiladi. Boshqotirmada berilgan daryo nomlari bo'yicha suhbat uyushtiriladi.

Boshqotirmada berilgan daryo nomlari O'zbekiston hududida joylashgan. Oqdaryo Samarqand viloyatida joylashgan. Orolga borib quyiluvchi eng katta daryolardan biri bu Sirdaryo hisoblanib, u Tyanshan tog'larida 6000m balandlikdan boshlanadi. Sirdaryoning chap irmog'i Qora daryo hisoblanadi. Surxondaryo viloyatidan oqib o'tuvchi daryo Surxondaryo hisoblanadi.

Topshiriqni bajarib bo'lgandan keyin, o'quvchilarning bugungi mavzu suv havzalari va inshootlari nomlari bo'yicha olgan bilimlarini tekshirish va mavzuni umumlashtirish maqsadida o'quvchilarga bir nechta savollar beriladi.

1. Daryo nomlariga misollar keltiring.
2. Buloq nomlariga misollar ayting.
3. Ko'l, okean, dengiz nomlariga misollar aytib, ularni izohlang.

O'quvchilardan savollarga javob olingandan keyin, suv havzalari va inshootlari nomlari bo'yicha mustaqil ravishda o'z ustida ishlashlari uchun uyga topshiriq beriladi.

287-mashq. Uyga vazifa. Quyidagi savollarga geografiya fanidan olgan bilimlaringiz asosida javoblar yozing va suv bilan bog'liq nomlarni izohlang.

1. Qaysi daryo o'tmishda Jayhun, O'kuz, Okis nomlari bilan atalgan?
2. Respublikamiz hududidagi dengiz nima deb ataladi?
3. Toshkent shahri ichidan oqib o'tuvchi kanal nomini ayting.
4. Qashqadaryo va Norinning qo'shilishidan qaysi daryo hosil bo'ladi?

II bob. Turdosh otlarni o'tish usullari.

2.1. Turdosh otlar va uning ma'noviy guruhlari.

Umumiy o'rta ta'limda asosiy turdosh otlarga tegishli dars soatlari 6-sinfda ajratilgan bo'lib, asosiy dars 3-chorakda o'tiladi.

Avvalo turdosh otlarning qoidasiga e'tiborni qaratsak, bir turdagi narsa, voqea-hodisa, harakat-holat, o'rin-joylarni atab kelgan so'zlar turdosh otlardir. Masalan, tosh, gul, stol, stul, kabi.

O'quvchilarga ayni bir so'zni turdosh va atoqli ot sifatida qo'llab, gap juftlarini hosil qilishga e'tibor qaratishimiz kerak. Masalan:

1. Dengizning to'lqini tobora kuchayib borar edi.
2. Etigini yechayotgan To'lqin onasiga charchaganini va ochqaganini aytdi.

Otlar avvalo turdosh va atoqli otlarga bo'linadi. Turdosh otlar o'z navbatida aniq va mavhum otlarga bo'linadi.

Bilib oling! Aniq shaxs, narsa-buyumlarni anglatadigan, birlik va ko'plik shakllarda qo'llanadigan aniq otlardir.

Mavhum tushuncha, xususiyat, harakat va holatni bildiradigan, odatda, ko'plik shaklida qo'llanmaydigan otlar mavhum otlardir.

Endi turdosh otlarning ma'noviy guruhlariga to'xtalib o'tsak: Masalan: atirgul, paxtakor, ketma, yo'lbars, sondiq, terak, tikuvchi, ochi, tabiatshunos, chuvalchang, makkajo'xori, sassifpishak, guruch, mahsi mosh.

1. Shaxsni atovchi otlar: paxtakor, tikuvchi, tabiatshunos.
2. Hayvonotni atovchi otlar: yo'lbars, chuvalchang, sassiqpishak.
3. O'simlik va mevalarni atovchi otlar: atirgul, terak, olcha, makkajo'xori, guruch, mosh.
4. Narsa – buyumlarni atovchi otlar: ketmon, sandiq, maxsi.

Bundan tashqari modda ma'don otlari – oltin, tosh, kumush, temir, makon otlari-maktab, zavod, gulzor, kutubxona, zamon otlari-sentyabr, kuz, kunduz, tong kabi otlarning ma'noviy guruhlari mavjud.

Shaxs otlarini yoshiga ko'ra, qarindoshligiga ko'ra, kasb-koriga istiqomad joyiga ko'ra guruhlarga ajratish mumkin:

Masalan: aka, suvchi, toshkentlik, qoriga, yigit, jiyak, bo'yoqchi.

1. Yoshda ko'ra-qariya yigit, o'spirin, o'smir.
2. Qarindoshligiga ko'ra – aka jiyan, bobo chevvara.
3. Kasb koriga ko'ra suvchi, bo'yoqchi, dehqon bog'bon.
4. Istiqomat joyiga ko'ra toshkentlik, uchqo'rgonlik kabi guruhlarga ham ajratish mumkin.

Shu bilan birga o'quvchilarga shaxsni mansabiga ko'ra atovchi otlar, rais, direktor, hisobiga ko'ra atovchi otlar-xo'ja, bek, amir kabi guruhlarga bo'linadi.

Turdosh otlarning qavm-qarindoshlik otlar turi ham bo'lib, masalan, bobo, buvi, ini, og'a, tog'a, amaki, xola, amma, ovsin, qaynona, qaynota, jiyan, amnavachcha, tog'avachcha, evara, chevvara, kelin, nevara.

Qarindoshlikni atovchi otlar to'g'ri (o'z) yoki ko'chma ma'noda qo'llanilishi ham mumkin.

Masalan:

1. Onajonim kechalari kirib chiqar tushimga. Opajon, olmalarning yaxshisidan bering, bo'lmasa, ayam urishadilar.

2. Otajonim quruvchi bo'lganliklari sababli akam ham yoshlikdan shu kasbga mehr qo'ydilar. Katta Farg'ona kanali ota va bobolarimizning jasoratidan nishonadir.

3. "O'g'lim 6-sinfda o'qiydi", - dedi faxr bilan ota. Keksa bir otaxon menga yuzlanib: "Yo'ldan o'tkazib qo'ying o'g'lim", - dedilar.

Ayrim turdosh otlarga –lar qo'shimchasi qo'shilib, qo'shimcha ma'no nozikliklarini hosil qiladi.

1. Akalarim Toshkentda Milliy Gvardiya safida xizmat qilyaptilar. Akamlar universitetida o'qiyaptilar.

2. Zardo'zlik fabrikasida ishlayotgan minglab opalarim qatori men ham zardo'z bo'lmoqchiman. Katta opamlar zardo'zlik fabrikasida zardo'z bo'lib ishlaydilar.

3. Siz O'zbekistonimizning ertasisiz, mening o'g'illarim va qizlarim. – O'g'illarim va qizlarim ulg'aygach, ro'zg'or tebratish ancha yengillashdi.

Shu bilan birga qarindoshlik otlariga qo'shilgan –cha qo'shimchasining ma'nolarini izohlaydi.

1. Mitti Gulnoz opachasi bilan o'ynardi shodon. Hiylagar bibichaning boshqa qilmishlari haqida bilib oldi.

2. Amin bobo nevarachasi bilan bog'da kezardi.

3. Singilchamning tili shirin.

4. Ukamning yangi ko'ylak yarashdi.

5. Qorbobo jiyanchamga sovg'a berdi.

Kasb-koriga ko'ra shaxs otlari mavzusida shaxs otlarining tub va yasama ekanligiga ham ajratish kerak. Masalan: Suvchi, kosib, zargar, olim, tilshunos, paxtakor, muxandis, suratkash, shifokor, etikdo'z, dorboz, hisobchi

Tub so'z	yasama so'zlar
Kasb	suvchi
Olim	zargar
Muhandis	tilshunos
	Paxtakor
	Suratkash
	Shifokor
	Etikdo'z
	Darboz
	Hisobchi

Esda tuting!

1. Undoshlar bilan tugagan barcha fe'llarga shaxs oti yasovchi qo'shimcha –uvchi shaklida qo'shiladi: boruvchi.

2. “a” unlisi bilan tugagan fe'llarga shaxs oti yasovchi qo'shimcha –vchi shaklida qo'shiladi va fe'l oxida a unlisi “o”ga aylanadi hamda shunday yoziladi.

So'ramoq-so'rovchi

3. “i” unlisi bilan tugagan fe'llarga ham shaxs oti yasovchi qo'shimchasi -vchi shaklida qo'shiladi va fe'l oxirida “i” unlisi “m”ga o'tadi hamda shunday yoziladi: o'qimoq-o'quvchi.

Eslatma:

1. “i” tovushidan keyin yoziladigan v undoshi deyarli o'qilmaydi, balki o'zidan oldingi “i” tovushini cho'zibroq talaffuz etishga ishora qiladi.

2. “o” unlisidan keyin keluvchi “v” tovushi juda yengil aytiladi va bu undosh talaffuzida lablar bir-biriga tegmay cho'chchaymaydi.

Turdosh otlar shaxsni boshqa jihatlariga ko'ra atovchi otlarga ham bo'linadi. Masalan:

1. ninni-chaqaloq-go'dak;
2. o'smir – o'spirin- yigit.
3. qiz– juvon – ayol –kampir.
4. yigit – erkak – qariya - chol.

Bilib oling!

1. “joy nomi -lik” tuzilishli so'zlar shaxsni turar joyi yoki kelib chiqish joyiga ko'ra atab keladi. Joy nomi atoqli ot bo'lsa, -lik qo'shimchasini qabul qilgach, turdosh otga aylanadi va kichik harf bilan yoziladi.

2. “Ot - dosh” tuzilishli shaxs otlari o'zi anglatgan narsa, buyum, ular uchun umumiy bo'lgan shaxslarni atab keladi. – dosh qo'shimchasi atoqli otlarga qo'shiladi.

Shaxs otlariga qo'shilgan –lar ko'plik qo'shimchasi hurmat ma'nosidan tashqari:

1. shaxslarning bittadan ko'p ekanligi, ya'ni oddiy ko'plik:
2. jami ko'plik, ya'ni bir guruh yoki jinsni butunlik sifatida ifodalovchi ma'nolarga ega bo'ladi.

-lar qo'shimchasi oddiy ko'plik ma'nosida kelganda, so'z ifodalagan ko'plikni sanash va miqdorini bilish mumkin. bu qo'shimcha ko'plikni ifodalaganda, shaxslar sonini aniq sanash mumkin emas.

Shaxs otlarining aniqlovchisi aniq miqdorni ifodalab kelsa, shaxs oti birlik son shaklida qo'llanadi.

Shaxs otlariga qo'shilgan –cha qo'shimchasi aniq miqdorni ifodalab kelsa, shaxs oti birlik son shaklida qo'llanadi.

Shaxs otlariga qo'shilgan –cha qo'shimchasi ba'zan kichraytirish, lekin ko'p ma'noda kesatish ma'nosida ishlatiladi. Kesatish ma'nosi talaffuzda kesatish ohangi bilan ifodalanadi.

Hayvonlarni atovchi otlar xonaki yoki yovvoyi hayvonlarni atash uchun qo'llaniladi. Shunga ko'ra ularni 3 guruhga ajratish mumkin.

A) xonaki hayvonlar.

B) yovvoyi hayvonlar.

V) hashoratlar.

Xonaki hayvonlarga: sigir, qo'y, echki, ot va hokozalar misol bo'lsa, yovvoyi hayvonlarga esa o'rmon jonivorlari sher, tulki, yo'lbars, sirtlon, fil kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Hashoratlarga esa chumoli, ninachi, chigirtka va hokozalar misol bo'la oladi.

Hayvon otlari ayrim holatlarda o'z yoki ko'chima ma'noda qo'llanilishi mumkin.

Masalan: O'zbekistonda zarharli ilonlarning juda ko'p turlari mavjud.

Ushbu gapda ilon hayvon oti o'z ma'nosida qo'llanilmoqda. Gap ilonning turlari haqida bormoqda.

Masalan Xolmat aka ilonday sezgir edi. Ushbu gapda esa ko'chma ma'noda qo'llanilmoqda.

Hayvonot otlari kishi nomlari tarkibida ham kelishi mumkin.

Masalan: Shermuhammad, Alisher.

Ayrim holatlarda atoqli otlar bilan birikib shaxsning xarakterini ochib berish, yoki laqab ma'nosini bildirishi mumkin. Masalan, Po'lat bulbul. Asad tulki.

Hayvon otlar ayrim holatlarda –chi kichraytirish, -lar ko‘plik qo‘shimchalarini ham qabul qilishi mumkin. Bu holatda ular ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi.

Masalan, Yaxshi bo‘lishni istasang, umr bo‘yi bu ilonlar bilan olishib yashashga majbur ekansan. Ilonlar so‘zi shaxsning salbiy xarakterli ekanligini, yoki nopok, vijdotsiz kishilarga nisbatan ishlatilmoqda.

Agar hayvonot otlarining o‘rta maktabda o‘tilishi masalalariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, hashoratlar sur‘ati berilsa, o‘quvchilar o‘zlari mustaqil ularni xonaki, yovvoyi hayvonlar, hashoratlar guruhida ajratib yozsalar maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylayman.

Bundan tashqari “Burgut-o‘tkir nigohli qush”, “Arslon – hayvonlar podshosi”, “Chumoli- mehnatkash jonivor”, “Qo‘y –yuvosh uy hayvoni” mavzularining birida ijodiy insho yoki matn tuzish ham yaxshi samara beradi.

Aniq otning yana bir guruhi daraxt va o‘simlik nomlari bo‘lib, bu mavzu o‘quvchi uchun juda sodda, shu bilan birga qiziqarli bo‘lishi,shubhasiz.

Daraxt nomlari;

A mevali daraxt nomlari b mevasiz daraxt nomlari kabi guruhga ajratish mumkin.

Mevali daraxtlarga olma,anor,shaftoli, o‘rik, gilos kabi mevali daraxtlarni misol keltirish mumkin.

Mevasiz daraxtlar esa asosan ko‘rk yoki xomashyo uchun ekiladi. Bundan daraxtlarga terak,chinor,qayin, tol kabi daraxtlar misol bo‘ladi.

O‘simlik nomlariga esa

A gul nomlari b o‘t-o‘lan nomlari kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Gul nomlari nargis, atirgul,rayhon va vahokazo.

O‘t-o‘lan nomlari esa yalpiz,ajriq,sho‘ra va hakoza.

Bundan tashqari o‘simlik nomlari tarkibiga poliz ekinlari tur va xillarining nomlarini ham kiritish kerak bo‘ladi.

Masalan qovun,tarvuz,pomidor,garmdor,sabzi va hokazo.

Mavhum otlar

Otlarni o‘tishda mavhum otlarga ham alohida e‘tibor qaratish lozim deb hisoblayman.

Hayoliy mavjudotlarni atovchi otlar; ajdarho, dev, pari, arvoh, poyg‘ambar, jannat, do‘zax shajara ma‘nolarini ifodalovchi otlar mavhum otlar sanaladi. Bunday otlar mavhum, ya‘ni ko‘rib, ushlab bo‘lmaydigan hodisalarni atovchi otlar: shodlik adalat salbiylik ma‘nolarini ifodalab keladi.

Mavhum otlar o‘z navbatida belgi xususiyatini ifodalovchi otlar, munosabatlarni ifodalovchi otlar, kasbkor faoliyatini ifodalovchi otlarga ham bo‘linadi.

1. Belgi xususiyatlarni ifodalovchi otlar: go‘zallik, qobiliyati, adolat, aloqa.

2. Besaranjomlik, dushmanlik, shafqat, shafqatsizlik, zulm, rahm, iqtisod, odamiylik, johillik, sargardonlik, qiynoq.

3. Kasbkor, faoliyatni ifodalovchi otlarga paxtachilik, chorvachilik, bog‘bonlik.

Ko‘pincha otlarni o‘tishda diktantlarni yozish tavsiya etiladi. Masalan diktant turu bo‘yicha nazarot diktant yozish mumkin.

Cho‘lda: Yozda Shuhrat cho‘lga bordi. U yerda kichik amakisi cho‘ponlik qiladi. U ertalab qo‘ylarni haydab ketganida, Shuhrat o‘tovda yolg‘iz qoladi. Ermagi –bitta cho‘loq qo‘zi. Unga sut ichiradi, o‘tov atrofiga olib chiqadi. Qo‘zi ba‘zan o‘tlardan chimdasa, ba‘zan hidlab qo‘ya qoladi.

Mana, yaqinda poda o‘tgan joy. Bu yerda ham ayrim o‘tlarda qo‘ylar og‘iz urmabdi. Shuhrat amakisining sirdan o‘qishini bilardi. Turli o‘tlarning ildizi: poyasi, bargi, gulini albomga yopishtirganini ham ko‘rgan. Shu albom o‘tovdagi bir dasta kitoblar ustida turardi.

Shuhrat o‘tovning solqin tomonida o‘tirib, albomni varaqlay boshladi. “Dorivor o‘simliklar” deb yozilgan bo‘limida ismaloq, yalpiz, bargizub, bo‘yimadaron kabilarning turli kasalliklarga dori ekanligini o‘qib, Shuhrat hayron qoldi. Oyisining ismoloqdan somsa, yalpizdan chuchvara qilishining

sababini endi tushundi. Albomning bir betida ravochni ko‘rib. Og‘zining suvi keldi.

Albomda dorivor hamda qo‘ylarga ozuqali o‘tlar namunasi ko‘p bo‘lib, piyoz ildizlarining faqat yaprog‘i-yu, guli yopishtirilgan, piyozning esa rasmi chizilgan edi. Bu o‘tlarning xususiyatlari, nimaga dori ekanligini ham o‘tgandi.(M.To‘ychiyev)

Yoki bo‘lmasa, o‘rin-joy, makon otlariga ham Nazorat diktant tavsiya etish mumkin.

“Shaxrimiz tarixi” Hojiyev Muallimning aytishlaricha, Surxondaryo qadimda, eramizdan avval madaniyat va san‘atning eng rivojlangan markazlaridan biri bo‘lgan. Lekin bosqinchilar uni shunchalik xarob qilganki, u asrlar davomida o‘zini o‘nglay olmagan. Xullas, Iskandar yurish qilib kelayotganida, Denovning ustidan o‘tayotib, tog‘lar orasida joylashgan Sangardonimizni ko‘rib qolgan. Sangardon shunday go‘zal ekanki, uni tor-mor qilishga, iskandarning ko‘zi qiymagan. Shuning uchun taslim bo‘linglar deb odam yuborgan. Biznikilar esa taslim bo‘lmagan. Keyin Iskandar hujum boshlagan. Biznikilar daraning og‘zida ularning yo‘lini to‘sib olib bittasini ham yaqin yo‘latmagan. Boshqa yoqda yo‘l yo‘q edi. Uch taraf –tog‘. Tog‘lar qal‘a devorlari emaski, yov ularni mashinalari bilan ag‘darib kirsan.(Sh.Xolmirzayev “O‘zbeklar” hikoyasidan.14-bet)

Aniq otlarning yana bir turi bo‘lmish payt(zamon) anglatuvchi otlar ham bo‘lib ulardan izohli diktant mashqlari bilan o‘quvchilar bilan ishlansa, maqsadga muvofiq keladi.

Izohli diktant

Quyosh va oy yillari taqvimi

Yilning ikki xil hisobi bor. birida quyoshning, ikkinchisida Oyning ko‘rinishi asos qilib olinadi. Shunga ko‘ra, Quyosh yili (sanayi Shamsiy) va Oy yili (Sanoyi Qamariya) deb yuritiladi.

Quyosh yili hisobi bilan bir yil 365 kun (kecha-kunduz) 6. Soat, 56 daqiqa bo‘lib, 52 haftadan bir kun-u 6 soat ortiqdir.

Oy yili hisobi bilan bir yil 354 kun bo‘lib, 50 haftadan 4 kun ziyotdir.

Bunda Quyosh yili (melodiy) va Oy yili (hijriy) taqvimlari olinadi.

Hut oyi har 4 yilda bir marta 29 kun 3 martada 28 kun bo‘ladi. Oy yili hisobida oylarning nomi mana bunday: muharram. Safar, rabiul avval, soniy, jumadul avval jumadul soniy, rajob, shobon, romozon, shavvol, zulqada, zulhijja nomlari bilan ataladi.

Turdosh otlar to‘g‘risida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma, malakalarni tekshirishda albatta ularning yozilishiga ham alohida e‘tibor qaratish lozim.

Masalan, Nazorat diktant yozdirsak, unda asosan turdosh otlarning yozilishiga e‘tibor beriladi.

Vatanimizning taraqqiyot yo‘li

1991-yilning 31 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi e‘lon qilindi. Muqaddas orzu ushaldi. O‘zbekiston xalqi jonajan o‘lkadagi beqiyos boylikning haqiqiy egasi bo‘lib qoldi. Respublika o‘z oltinini, boshqa nodir va qimmatbaho metallarni mustaqil qazib chiqarib, qayta ishlamoqda va saqlamoqda. Yer, yer osti boyliklari. Boshqa tabiiy boyliklar avlod ajdodlarning mehnati bilan yaratilgan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ma‘naviy-milliy boylik bo‘lib, taraqqiyotimizning asosiga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston –kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu-insonparvarlik qoidalariga asoslangan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta‘minlab beradigan davlatdir.

Yoki diktantlarning yana bir turi o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga va savodxonligini oshirishga xizmat qiladigan ijodiy diktantdan ham foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarga qugidagicha topshiriq berildi:

1.Shxsning jinsiga ko‘ra atovchi otlar ishtrokida gaplar tuzing.

2. Turar joyiga nisbatan umumiy boʻlgan shaxslarga doir soʻzlar yasang va ulardan biri haqida kichik matn tuzing.

Izohli diktant

Ziyofatda

Mirzo Ulugʻbekning onasi Gavharshodbegim qavogʻi soliq holda, noxush kayfiyatda uzoq jim oʻltirgach, bolishdan ogʻir gavdasini koʻtarib joylashib oldi-da, Buxorodan, Samarqanddan, Andijondan, Balxdan ayol qarindoshlarining kelganini soʻzladi, bugun ularga atalgan ziyofat boʻlajagini aytdi. Mehmon bekalar orasida Alisherning onasi Gulbegim beka ham bor edi. Alisher onasiga sekin shivirlab, boqqa chiqishga ijozat soʻradi.

Alisher bu katta bogʻ hovlining har bir burchagini tomosha qilib, uzoq yurdi. Bir payt qarshisida yetti yoshlardagi shahzoda Husayn paydo boʻldi. Ular ikkovi koʻchaga chiqdilar. Katta maydonda yigitlar oʻq uzish mashqi ila mashgʻul edilar.

-Qara, kabutarlar raqsini koʻr! –Alisherning yengini tortdi, osmonga qarab Husayn.

-Kobutarlar farishtalarga oʻxshaydi-ya! Men ularni xoʻb sevadirman, ularga ishqim baland.

Alisher Husayn bilan xayrlashgach, asta yurib ichkariga kirdi. Bazm avjida edi. Musiqa tinmasdi, bir toʻda cholgʻuchilar xonaning bir chetida oʻtirib, tambur, dutor, ruboblarni nihoyatda mohirlik bilan chertar edilar.

Alisher goʻyo sehirlangandek, oʻzini shu ajoyib ohanglar qanotida kuyning mazmunini anglab, shirin kechinmalar ogʻushida jim oʻltirardi.

2.2. Turdosh otlarni noan'anaviy usulda o'tish

Ona tili o'qitishda induksiya va deduksiya (lotincha induction-ayrimlikdan umumiylikka –xulosa chiqarish tiplaridan biri lotincha deduction-xulosa chiqarish muhokama qilish usullaridan biri) usullaridan foydalaniladi. Induksiya va deduksiya orasidagi uzviy bog'lanishni G'.Engels xuddi analiz bilan sintez orasidagi aloqaga o'xshatadi va har birining inson tafakkurida tutgan o'rmini alohida ta'kidlaydi. Ona tili o'qishdagi induksiyaga kelsak, ayrim olingan til faktlarining tahlilidan. Ma'lum bir xulosa chiqarishdir. Deduksiya tildagi umumlashgan qoida, ta'riflarni ma'lum bir xulosalarni konkret faktlar orqali isbotlashdir.

Ona tili o'qitishda har ikkala metoddan ham foydalaniladi. Yangi mavzu o'quvchilarga bir oz tanish bo'lsa, induksiyadan foydalanish mumkin. Agar mavzu notanish bo'sa deduksiya metodidan foydalaniladi. Bundan esa avval ta'rif aytilib, tegishli misollar orqali asoslanadi.

Hozirgi darsliklarda ko'proq e'tibor induksiya metodiga qaratilgan, chunki bu metod orqali o'quvchilar oldingi sinfdagi o'tilgan mavzularini eslaydi va ularni qanday so'roqlarga javob bo'lishini misollar orqali tishuntira oladi.

Jumladan, turdosh otlar haqida gapiradigan bo'lsak bu mavzu maktab darsliklarida 5 va 6-siflarda berilgan.

Umumiy o'rta ta'limning davlat standartlari va o'quv dasturiga muvofiq turdosh otlar mavzusi 5-sinfda ot so'z turkumi ichida turdosh va atoqli otlar mavzusida bir soatga berilgan 6-siflarda esa (H.Ne'matov, A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Abduraimova 2001-y) ot so'z turkumi bir chorakka berilgan. Aynan shu darslik o'quvchilarning yosh xususiyatini e'tiborga olib tuzilgan. Darslikda nazariy bilimga ham o'rin berilgan. Asosan mashqlar berilgan bo'lib, o'quvchining o'zi mashq bajarish asosida nazariy xulosa chiqarib olishi mumkin. Shunday bo'lsada, o'qituvchidan yuksak bilim talab qiladi. Chunki o'quvchi mavzuni eshitib mashq yechib keta olmaydi. Ularga turtki beruvchi na'muna bo'luvchi bu o'qituvchidir.

Turdosh otlar mavzusi pastki sinflarda ham qisman o‘tilgan va o‘quvchilarda bu mavzu yuzasidan ma’lumot bor. Shuning uchun bu mavzuni o‘tishda induksiya metodidan foydalaniladi.

Bu mavzuni o‘tishda o‘quvchilarning yosh xususiyatiga, ularning bilimiga, qiziqishlariga e’tibor berish lozim. Chunki bolalarda mavzuni tushuntirishda ularni o‘yinlar shaklida, na’anaviy tarzda o‘tish lozim. Ularning yoshini hisobga olib aqliy hujub tarzda ham o‘tish mumkin. Bundan tashqari ularga mavzuni diagramma –venna tarzida ham o‘tish lozim.

Jumladan, 211-mashqning 1–topshirig‘ida berilgan otlarni ikki guruhga bo‘lib. Guruhlarni mustaqil davom ettiring. 1-guruhga ushlab, ko‘rib, o‘lchab bo‘ladigan shaxs, yarsa-buyumlarni atovchi otlarni, 2-guruhga esa faqat xayolan tasovvur etiladigan tushunchalarni atovchi otlarni birlashtiring deyilgan.

1-guruh	2-guruh
Kitob	sevgi
Zargar	adolat
Tepalik	yaxshilik
Paxta	haqiqat

Shu birgina mashq orqali turdosh otlarning aniq va mavhum otlari haqida o‘quvchilarda fikr uyg‘otmoqda va ularning ya’ni aniq va mavhum otlarning bir-biridan ma’naviy farqini ko‘rsatib bermoqda. 4- topshiriqda esa aniq va mavhum otlarga ta’rif bering. Faqat aniq va faqat mavhum otlarni o‘z ichiga olgan 3-4 gapli matn tuzing deya berilgan. Bunda esa o‘quvchilar 1-2 topshiriqlardan mavzuni tushunib, o‘zlari xulosa chiqarishadi, masalan: aniq narsa-buyumlarni aniqlatadigan otlarni aniq otlar, mavhum tushunchani anglatadigan otlarni esa mavhum otlar deb ataymiz.

Bundan tashqari o‘quvchilardan shaxs otlarining yozilishini tekshirish uchun izohli diktant olish ham mumkin. Izohli diktant orqali o‘quvchilar bilimi ikki tomonlama aniqlanadi:

1.O'quvchilarning diktant yozishdagi savodxonligi o'rganiladi. Bunda o'rganilgan imlo va Grammatik qoidalarni qay darajada qo'llayotganliklari bilinadi.

2.O'quvchilar bilimi bilan bog'liq nazariy kamchiliklar bilan bog'liq bo'lgan o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bunday diktantning eng muhim tomoni shundaki, o'quvchilarni mustaqil fikrlash uchun olgan nazariy bilimlarini yozuvda erkin qo'llashga o'rgatadi.

Masalan:

1. Muloyim va dilkash qizlarning so'zlari, suhbatlar ko'ngilni oftobday yoritadi. "Labbay", "xo'p bo'ladi", "jonim bilan" kabi so'zlar bilan muomolada bo'ladigan qizlarni keksalar yaxshi ko'radilar, duo qiladilar.

2.Har bir saodatli kelin o'z qadriyatlarimizni, an'analarimizni, ota-bobolarimiz, momolarimiz bizga qoldirgan udumlarni bilishi, o'gitlarga rioya qilishi, bilganlarini boshqalarga o'rgatish ham farz, ham qarzdir.

Ushbu izohli diktantning ichidan o'quvchilarga topshiriq beriladi. Shaxs otlarini topib yozib chiqiladi. Kelin, Ota-bobalarimiz ajratiladi.

Jumladan o'quvchilar aqliy qobiliyatini sinash maqsadida ularga turli o'yinli mashqlar bajarish ham mumkin.

Buni biz "Narsa –buyum otlar" mavzusi orqali ham ko'rishimiz mumkin. 273-mashqda shunday deyilgan.

Bir Zum o'ylang; siz, biror ovqat pishirmoqchisiz yoki qo'g'irchoqingizga ko'ylakcha tikmoqchisiz, ukangizga aravacha yoki kursicha yasamoqchisiz. Har bir ishni tavsiflash uchun qanday so'zlardan foydalanasiz. Ularning ro'yxatini "Otlar", "sifatlar" va "fellar" kabi so'z turkumlariga ajrating.

Sho'rva pishirishni tavsiflash uchun kerak bo'ladigan so'zlar: otlar; go'sht, sabzi, piyoz, sholg'om, kartoshka, suv, ukrop, tuz, qozon, gaz, gugurt, cho'mich, qoshiq, pichoq, kosa, tovoq, moy;

Sifatlar: yumshoq, suyakli, qizil, oq, shirin, toza, yangi, mayda, yoqilgan;

Fe'llar: to'g'ramoq, archmoq, kesmoq, solmoq, yoqmoq, qaynatmoq, pishirmoq, suzmoq, qo'ymoq, yuvmoq, tozalamoq, yemoq, ichmoq.

Ko'ylakni tavsiflash uchun kerak bo'ladigan so'zlar:

otlar: material, metr, ruchka, qalam, mel, nina, ip, mashina, qaychi, andoza;

sifatlar: chiroyli, uzun, katta, o'tkir, oq, qora, qizil, malla, ko'k iplar.

Fe'llar: tikmoq, bichmoq, qirqmoq, yamamoq, yasamoq, yurgazmoq, o'tkazmoq, qo'ymoq, o'lchamoq, yozmoq.

Bu mashq orqali bitta turdosh otlarni emas, balki so'z turkumlaridan ot, sifat va fe'l so'z turkumlari chuqurroq o'rganiladi va o'quvchilarga yana bir bor eslatib, mustahkamlanadi.

6-sinf darsligida berilgan "Turdosh otlar" mavzusi butun bir chorakka bag'ishlanganligi uchun ham o'quvchilar bu mavzuga befarq, oson deb qaramasliklari uchun turli xil o'yinlar, turli xil bellashuvlar o'tkazib borish lozim. Bu esa bolalarning fanga qiziqishini mavzuni to'liq anglab yetishiga sabab bo'ladi.

III bob. Bitiruv malakaviy ishining amaliyotga tadbiqu.

3.1. Bir soatlik noan'anaviy dars ishlanmasi

1. Darsning mavzusi: Hayvonot otlari.

Darsning maqsadi va vazifasi:

A)Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga hayvonot otlari haqida ma'lumot berish, bilim va malaka hosil qilish hamda olgan bilimlarini umumlashtirish.

B)Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni oila va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

S)Rivojlantiuvchi maqsad: dunyo qarashini kengaytirish, og'zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirish.

2. Darsning metodi – suhbat, turli o'yinlar metodi, ko'rgazmali qurollar, darslik, mavzuga doir kartochkalar.

3. Tashkiliy qism –

A)Salomlashish;

B)Sinf madaniyati, o'quvchilardagi estetik jihatlarni nazoratdan o'tkazish;

S)Davomatni aniqlash;

D)Dars mavzusi sinf o'quvchilarining davomatiga doir ma'lumotlarni sinf jurnaliga rasmiylashtirish.

4. Asosiy qism – o'quvchilarning hayvonot otlariga doir bilimlarini tekshirish hamda mustahkamlash.

Hayvonot otlari mavzusi ham turdosh otlar ichida kiritilib, bir soatga berilgan.

O'quvchilar darrov mavzuni eshitishi bilanoq hayvonlar nomini sanab tashlashadi. Ularni yovvoyi va xonaki (uy) hayvonlariga ham bo'la oladi. Lekin shu mavzuga qiziqtirish uchun sinfni ikki guruhga bo'lib, topqirlik bellashuvi ham o'tkazish mumkin. Masalan:

1-guruh o'quvchilari hayvonlarning o'z ma'nosiga 2-guruh esa ko'chma ma'nosiga gap tuzadi.

1-guruh: Tulki eng ayyor hayvon.

2-guruh: Asad tulki odam.

Keyin 2-guruh o'z ma'nosida

Burgut ovchi qush.

1-guruh a'zolari esa buning ko'chma ma'nosiga gap tuzadi.

Rahmonqulning kimlini bilmaydiganga o'xshaysan. U burgutning o'zi-ku!

Shu tarzda guruhlar musobaqasi davom etadi, ayta olmagan guruh esa jarima bilan, g'olib guruh esa omad chiptasi bilan taqdirlanadi.

Bundan tashqari Turdosh otlarning har bir mavzusini mustahkamlash uchun "Oq terakmi, ko'k terak" o'yinini ham o'tkazish mumkin.

Bunda o'quvchilar 2-guruhga bo'linishadi va o'tilgan mavzular bo'yicha xohlagan savolini, komondadagi o'zi xohlagan o'quvchiga beradi. Agar berilgan savollarga aniq, to'g'ri javob bermasa, javob berolmagan o'quvchi o'zguruhidan boshqa guruhga o'tadi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi. Kimda o'quvchilar soni ko'p bo'lsa o'sha guruh g'olib sanaladi:

Masalan: 1-guruh "Oq terakmi ko'k terak" deydi. 2-guruh: Bizdan sizga kim kerak.

1-guruh: Bir o'quvchi turib bizga Bobur kerak deydi.

2-guruh Bobur turadi.

1-guruh savol beradi. Hayvonot otlar nima va uning ko'chma ma'noda kelishiga misol keltiring?

2-guruh: Bobur javob beradi.

2-guruh Savol: Shaxsni boshqa jihatlariga ko'ra atovchi otlar 10ta misol ayting.

1-guruh: Shaxs otlar birikmalarni sanab ketadi. Va noto'g'ri misol keltirganligi uchun ulardan 1 ball olinib, 1-o'quvchi 2-guruhga o'tkaziladi va 2-guruh g'olib deb sanaladi.

Hayvonot otlari mavzusi yuzasidan mustahkamlash darsida ta'kidiy diktant ham olish mumkin.

VI. Yangi mavzu boyoni:

Bu mavzu o'quvchilarga vazifa qilib berilgan bo'lib, mustahkamlash darsi asosida o'tkaziladi.

Bunda o'quvchi asosiy rolni bajargan bo'lishi, mavzularni yaxshi tushungan bo'lishi lozim. Endi mavzuni o'yin shaklida boshlaymiz.

Diagramma vena

Atoqli otlar

Turdosh otlar

Bosh harf bilan yoziladi Atab qo'yiladi, gazeta, jurnallar, joy nomalari, ism familiyalar, muassasa, tashkilotlarga atab qo'yiladi. Kim? Nima so'rog'iga javob bo'ladi.	Gapda ega vazifasida bir xil kela oladi, Grammatik vazifada kela oladi, egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi. Ikkasi ham kim nima so'rog'iga javob bo'ladi.	Narsa buyumning umumiy nomini bildirib keladi. Kim? Nima? so'rog'iga javob bo'ladi: kichik harf bilan yoziladi. Aniq va mavhum otlarning, shaxs otlarining, qavm – qarindoshlik, kasb-koriga ko'ra otlarning, hayvonot otlarining umumiy nomini bildiradi.
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

VII Yakuniy qism- uyga vazifa berish. Uyga vazifa. Har bir o'quvchi o'zi xohlagan mavzusida atoqli va turdosh otlar qatnashgan ijodiy matn tuzib kelish.

Xulosa

Ona tili ta'limining bosh maqsadi- og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat.

Bilimli, erkin fikrlaydigan ijodkor shaxsni shakllantirishda har bir o'quv predmetining o'rni kattadir. Shuningdek, ona tili o'quv fanining har bir bo'limi ham o'quvchining ma'lum tomonini rivojlantirishga qaratilgan va shu asosga o'quv dasturiga kiritilgan. Bunga erishish uchun esa o'quvchi ta'limda yuqori samara beradigan metodlarga ega bo'lishi kerak.

Otlarning ma'no jihatidan turlari ham mazmun, ham hajm jihatidan yirik bo'lib, grammatikaning o'ziga xos qutubini tashkil qiladi.

Tevarak atrofimizda biz ko'rib turadigan barcha jonli va jonsiz predmetlar hissiy o'rganlarimiz yordamida anglaydigan mavhum tushunchalar ot turkumiga kiradi. Shu jihatdan olganimizda o'quvchilarda otlarning ma'no jihatidan turlari bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lishi juda katta ahamiyatga egadir. Otlarning ma'no jihatidan turlari va uni maktabda o'tish usullariga oid bo'lgan bitiruv malakaviy ishim aynan shu masalaning yechimini topishga qaratilgan bo'lib, dars jarayonida o'quvchilarga otlarning ma'no jihatidan turlariga oid ma'lumotlarni sodda, ravon yo'l bilan etkazib berish usullarini tavsiya etishdan iborat edi.

Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida asosan umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi "6-sinf ona tili" darsligi va "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligini asos qilib oldim.

Ishning kirish qismida ona tili dasturi va darsliklarida til materiallarining berilishi dars samaradorligi bilan chambarchas bog'liqliklari haqida fikr bildirilgan. Shulardan kelib chiqqan holda indiktuv usulining faollik darajasini misollar asosida izohlashga harakat qildim. Yangilangan ta'lim mazmunining ahamiyati va unda morfologiyaning tutgan o'rni haqida to'xtalib, til hodisalariga yangicha yondashishni hamda uni o'rgatishda induksiya metodining afzallik tomonlarini qiyoslashga harakat qildik.

Ishning birinchi bobi “Atoqli otlarni o‘tish usullari deb nomlanib o‘quvchilarga atoqli otlar haqida ma’lumot berish.

Bir tomondan bilimlarni mustahkamlash, ikkinchi tomondan yangi bilim berishga bag‘ishlanadi.

Otlarning ma’no jihatidan turlariga ajratilgan vaqt bir chorakni tashkil etadi.

Ikkinchi bobni turdosh otlarni o‘tish usullari deb nomlanib, bunda darslikdagi mashqlar turli xildagi yozma ishlar bilan mustahkamlab borishni tavsiya qildik.

Uchinchi bobni Bitiruv malakaviy ishining amaliyotga tadbiri deb nomlab, unda Bir soatlik noan’anaviy dars ishlanmasi tahlil etdik. Umuman olganda bitiruv malakaviy ishimizni o‘quvchilarda bilim, malaka va ko‘nikma xosil qilish orqali og‘zaki va yozma nutq makalarini o‘stirishga qaratdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy, iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”, T.: 1997-yil.
2. Каримов И.А. “Баркамол авлод орзуси”. Тошкент.: “Шарқ”, 1999йил.
3. Каримов И.А. “Баркамол авлод –Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори”, Тошкент.: “Шарқ”, 1992 йил
4. Каримов И.А. “Юксак маънавият -енгилмас куч”, Тошкент.: “Маънавият”, 2008 йил
5. “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури, 1997 йил 29 август.
6. Ўзбекистон Республикаси Давлат таълим стандартлари тўғрисидаги низом, 1998 йил 5 ноябрь 7-бет.
7. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонун, Т.: 1995 йил.
8. Abdurahmonov G‘. Adabiy asar tilini o‘rganish haqida \O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi masalalari, Toshkent, Fan, 1966. 4-11-betlar.
9. Almamatov T., Yadgarov Q., Almamatova Sh. “O‘zbek tilini”. O‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Т.:2013-yil.
10. Azizxo‘jayeva N. “Pedagogik texnologiya va pedagogok mahorat”, T.: 2003-yil.
11. Hozirgi o‘zbek adabiy tili II tom, Toshkent: Fan, 1966, 418-bet.
12. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. “Ona tili”, umumta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. T.: “Tasvir”, 2009-yil.
13. Nurmonov A., Ikromov I., Boynazarov F. “Yangi pedagogik texnologiya”, T.: Falsafa va huquq institute nashriyoti, 2007, 14-bet.
14. Po‘latov I. Ahmedova H. “Ona tili bo‘yicha didaktik o‘yinlar”, Til va adabiyot ta’limi jurnali, №8, 2010 9-bet.
15. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, T.: 1988-yil.

16. То‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”, 2010-yil
17. Эргашев А, ЎзПФИТИ аспиранти “Она тили дарсларидан расмлар воситасида мазмундор гаплар тузиш”, Uzluksiz ta’lim, ilmiy-uslubiy jurnal №2, T.: 2006-yil.
18. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek tilining so‘zlashuv uslubi Toshkent.: Fan. 1991-yil.
19. H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent.: 2004- yil. 1-qism.
20. G‘ulomov A., Ne‘matov H., “Ona tili ta’limi mazmuni”. Ona tili o‘qituvchilari uchun qo‘lanma. Toshkent, 1995- yil.

Elektron saytlari

1. <http://ziyo.edu.uz/>
2. www.pedagog.uz
3. <http://uzref.uz>
4. <http://doc.uz>

Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchi kurs talabasi Shermatova Dilraboning “Otlarning ma’no jihatidan turlari va uni maktabda o‘tish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

XULOSASI

O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan bosh talablardan sanaladi. Darhaqiqat, nutq ravonligi, jozibadorligi, ta’sirchanligi o‘quvchi so‘z boyligiga bog‘liq. Shu ma’noda Shermatova Dilrabo tomonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ishining ahamiyati katta.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda talaba yetarli pedagogik salohiyatni egalladi. Hozirgi kunda otlarning ma’no jihatidan turlarini o‘quvchilarga sodda, ravon tarzda o‘qitishning dolzarb muammosi sanalgan yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tish, yangi pedagogik texnologiyalarni ona tili mashg‘ulotlariga tadqiq qilish metodlarini ishlab chiqdi.

Grammatik o‘yin-topshiriqlarning mohiyatini chuqur aks qilgan holda otlarning ma’no jihatidan turlari mavzusiga oid mavzularni o‘tishda qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yin-topshiriqlarni tanlash yo‘llarini va usullarini ishlab chiqdi.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, ishning maqsad va vazifalari hamda amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Bitiruvchi Shermatova Dilraboning “Otlarning ma’no jihatidan turlari va uni maktabda o‘tish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini o‘ganib chiqqan holda uni talab darajasida deb bilaman va YaDA hay’ati a’zolari oldida himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

katta o‘qituvchi.H.O‘roqov

Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchi kurs talabasi Shermatova Dilraboning “Otlarning ma’no jihatidan turlari va uni maktabda o‘tish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TASHQI TAQRIZ

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Kirish qismida ishning maqsadi, vazifalari, dolzarbligi, ahamiyati va mavzu yuzasidan e‘lon qilingan ishlar yoritilgan,

Asosiy qismning birinchi bobi “Atoqli otlarni o‘tish usullari” deb nomlanib unda ot so‘z turkumining ma’no jihatidan turlarini bir-biridan farqlash ham amaliy ham nazariy jihatdan ko‘rsatib o‘tilgan. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga qaratilgan bu mavzuga doir ko‘plab didaktik o‘yinlardan foydalanilgan.

Ikkinchi bobi “Turdosh otlarni o‘tish usullari” deb nomlanadi. Bu bobda bitiruvchi tomonidan mavzuga doir fikrlar aytilgan.

Turdosh otlarni o‘rganish orqali o‘quvchilar so‘z boyligi oshadi, fikrlash doirasi kengayadi. Turdosh otlarni guruhlarga bo‘lib ularni o‘tish usullari, yo‘llari ochib berilgan.

Ishning xulosa qismida yuqorida ko‘rsatilgan boblarda otlarning ma’no jihatidan turlari va uni maktabda o‘tish usullari masalalariga alohida e‘tibor qaratiladiki, bu borada 6-sinflar uchun ona tili darsligida berilgan otlarning ma’no jihatidan turlari va uni maktabda o‘tish usullari ishlab chiqilganligining guvohi bo‘ldik.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusiga doir ilmiy adabiyotlar va qo‘llanmalar, davlat ta‘lim standartlari na‘munalaridan unumli foydalanilgan xolda yozilgan.

Bitiruvchi Shermatova Dilrabo “Otlarning ma’no jihatidan turlari va uni maktabda o‘tish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ot so‘z turkumini o‘rganishda o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish haqidagi metodik ishlar qatoridan o‘rin oladi deb o‘ylayman va a‘lo yozilgan ishlar qatorida baxolayman.

Jizzah tumani maishiy xizmat va

iqtisodiyot kasb-hunar kolleji

Ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi:

Mo‘minova M.

Mundarija:

Kirish.	3-7
I bob. Atoqli otlarni o‘tish usullari.	8-40
1.1. Atoqli otlarning turlari va ularni noan’anaviy usulda o‘tish.	8-21
1.2. Tarixiy sana va bayram nomlarini anglatuvchi otlarni noan’anaviy usulda o‘tish.	22-40
II bob. Turdosh otlarni o‘tish usullari.	41-54
2.1. Turdosh otlar va uning ma’naviy guruhlarini.	41-50
2.2. Turdosh otlarni noan’anaviy usulda o‘tish.	51-54
III bob. Bitiruv malakaviy ishining amaliyotga tadbiri.	55-57
3.1. Bir soatlik noan’anaviy dars ishlanmasi	
Xulosa.....	58-59
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	60-61

Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchi kurs talabasi Shermatova Dilraboning “Otlarning ma’no jihatidan turlari va uni maktabda o‘tish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Mazkur bitiruv malakaviy ishi ma’lum reja asosida yozilgan. Rejada ko‘rsatilgan barcha savollar ona tili o‘quv uslubiga moslangan holda ijodiy yozilgan, ish uch bob va xulosadan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va bu borada ilmiy va nazariy ma’lumot bergan tilshunos olimlar haqida to‘xtab o‘tgan. Ikkinchi va uchinchi boblarda esa bitiruvchi ot mavzusini o‘tishda tayyor bilim berish shuningdek aqliy hujum, mashq bajarish o‘quvchilarning bilim darajasini mustahkamlashdagi ahamiyati haqida alohida to‘xtalib o‘tadi.

Ayniqsa uchinchi bobda bilimning amaliyotga tadbiqu haqida mulohaza yuritadi. Muallif bilimlarning qanchalik chuqur egallash talabaniing faqatgina talabaniing amaliyot, mashq natijasi belgilab berishini ta’kidlab ko‘rsatadi.

Ishda ot va uning ma’no turlari haqida o‘quvchilarga axborot berganda, uning o‘ziga xos xususiyatlari, boshqa so‘z turkumlaridan asosiy farqi nimada ekanligini yangicha ravishda tushuntirishni, bu borada o‘qituvchining vazifasini ko‘rsatib beradikim, bu ko‘pgina o‘qituvchilarga namunali vazifasini bajaradi.

Ishning xulosa qismida yuqorida ko‘rsatilgan boblarda otlarning ma’no jihatidan turlari va uni maktabda o‘tish usullari masalalariga alohida e’tibor qaratiladiki, bu borada 6-sinflar uchun ona tili darsligida berilgan otlarning ma’no jihatidan turlari va uni maktabda o‘tish usullari ishlab chiqilganligining guvohi bo‘ldik.

Shunday qilib, Shermatova Dilraboning bu ishi bitiruv malakaviy ish yozishning barcha talablariga javob beradi. Ayrim arfografik xatolarni e’tiborga olmaganida, ish yaxshi yozilgan. Bitiruv malakaviy ishini yuqori bahoga loyiq deb hisoblayman.

Taqrizchi:

prof.X.Jo‘rayev